# YOSHUA

## KITOBI

## Kirish

Yoshua kitobida Isroil xalqining tarixi bayon etilgan boʻlib, kitobdan oʻrin olgan voqealar Musoning Tavrot kitobidagi voqealarning uzviy davomidir. Isroil xalqi Xudo Ibrohimga vaʼda qilgan Kanʼon yurtiga kirib, uni zabt eta boshlaydi. Mazkur kitobda nafaqat tarixiy dalillar, balki Xudoning Oʻz xalqi bilan boʻlgan jonli munosabati, vaʼdalariga sodiqligi, bevafo xalqiga koʻrsatgan mehr–shafqati bayon qilingan.

Bu kitobning bosh qahramoni Nun oʻgʻli Yoshuadir. Musoning oʻlimidan keyin Yoshua Isroil xalqining yoʻlboshchisi qilib tayinlangan edi. Yoshua ismi “Egamiz qutqaradi” degan maʼnoni bildiradi. Kitobning shu nom bilan atalishi ham bejiz emas, chunki Xudoning Oʻzi xalqini dushmanlaridan qutqarib, sanoqsiz janglarda ularga gʻalaba ato qiladi. Gʻalaba harbiy kuch va salohiyat tufayli emas, balki Xudoga boʻlgan ishonch va Uning soʻziga itoatkorlik tufayli nasib boʻlishini Isroil xalqi oʻz tajribasidan bilib oladi.

Kitobning boshida (1-12–boblar) Yoshua Isroil xalqini Kanʼon yurtiga olib kirgani va yurtning aksariyat qismini zabt etgani haqida hikoya qilinadi. Kitobning bu qismida koʻp moʻjizalar haqida soʻz yuritiladi, masalan, Yerixo shahri uchun boʻlgan jangda Xudoning qudrati bilan shahar devorlari oʻpirilib tushadi, Givon shahri uchun boʻlgan jangda Xudo osmondan yirik doʻl yogʻdirib, dushman jangchilarini ezib tashlaydi, quyoshni bir joyda toʻxtatib qoʻyadi.

Kitobning davomida (13-25–boblar) Kanʼon yurtining yerlari Isroil qabilalari orasida taqsimlanishi haqida soʻz boradi. Muso davrida Isroil xalqining Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi Iordan daryosining sharqidagi yerlarga oʻrnashib olgan edilar. Endi Yoshua Iordan daryosining gʻarbidagi yerlarni qolgan toʻqqizta qabila va Manashe qabilasining ikkinchi yarmiga taqsimlab beradi. Levi qabilasi Xudoga xizmat qilgani bois, ularga boshqa qabilalar qatori yer ulush qilib berilmaydi. Yurtdan ulush berish oʻrniga, Yoshua levilarga butun yurt boʻylab yashashlari uchun shahar va qishloqlarni ajratib beradi. Oradan ancha yillar oʻtgandan keyin, hayotining soʻnggi damlarida Yoshua xalqni Xudoga sadoqatli boʻlishga, faqat Unga sajda qilishga chaqiradi.

## 1–BOB

### Xudo Yoshuaga Kanʼon yurtini bosib olish haqida amr beradi

1 Egamiz Oʻzining quli Muso vafotidan keyin Musoning yordamchisi Yoshuaga
shunday dedi: 2 “Mening qulim Muso vafot etdi. Endi hammangiz — butun Isroil xalqi
Men sizlarga berayotgan yurtga kirish uchun Iordan daryosidan oʻtishga
tayyorlaninglar*. 3 Musoga vaʼda berganimday, oyogʻingiz tekkan hamma joyni sizlarga
beraman. 4 Janubdagi sahrodan shimoldagi Lubnongacha, sharqdagi buyuk Furot
daryosidan gʻarbdagi Oʻrta yer dengizigacha* boʻlgan joylar, Xet xalqining hamma
yerlari* sizning yurtingiz boʻladi. 5 Ey Yoshua, bir umr hech kim senga bas kela olmaydi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Muso bilan boʻlganimday, sen bilan ham birga boʻlaman. Seni tark etmayman, hech
qachon tashlab ketmayman. 6 Dadil va botir boʻl, Isroil xalqi bu yurtni qoʻlga kiritib,
egalik qilishiga sen bosh boʻlasan. Chunki ularning ota–bobolariga, bu yurtni sizlarga
beraman, deb va’da qilganman. 7 Dadil va botir boʻlishing kerak, Men qulim Muso orqali
buyurgan qonunlarning hammasini bitta qoldirmay bajar, borgan joyingda ishlaring
oʻngidan kelishi uchun bu qonunlardan oʻngga ham, chapga ham ogʻma. 8 Tavrot
kitobida* yozilganlar tilingdan tushmasin, ularni bitta qoldirmay bajarishing uchun
kechayu kunduz ular haqida fikr yuritgin. Shunda ishlaring yurishib, oʻngidan keladi.
9 Amr qilaman: dadil va botir boʻl, vahimaga tushma, qoʻrqma, qayerga borsang ham,
Men, Egang Xudo, sen bilan birga boʻlaman.”

### Yoshuaning xalqqa bergan buyruqlari

10 Shundan keyin Yoshua Isroil qabilalarining nazoratchilariga shunday deb buyurdi:

11 — Qarorgoh boʻylab yurib, xalqqa quyidagi gaplarni aytinglar: “Oziq–
ovqatlaringizni tayyorlanglar, chunki uch kundan keyin Iordan daryosidan oʻtib, Egangiz
Xudo sizlarga berayotgan yurtni qoʻlga kirita boshlaysizlar.”

12 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmiga Yoshua shunday dedi:

13 — Egamizning quli Muso sizlarga amr qilib aytgan soʻzlarini eslang*. U sizlarga:
“Egangiz Xudo sizlarga osoyishtalik ato qilib, mana shu yerlarni berdi”, deb aytgan edi.
14 Xotinlaringiz, bolalaringiz, mol–qoʻylaringiz Muso sizlarga bergan yerda —
Iordanning mana shu sharq tomonida qoladi. Orangizdagi barcha qurollangan jasur
jangchilar esa birodarlaringizning oldida borib, Iordan daryosidan oʻtadi.
15 Birodarlaringiz ham Egangiz Xudo berayotgan yurtni egallamaguncha, jasur
jangchilaringiz ularga yordam beradi. Egamiz sizga osoyishtalik berganday,
birodarlaringizga ham osoyishtalik bergandan keyingina Egamizning quli Muso sizlarga
bergan Iordanning sharqidagi oʻz yeringizga qaytib kelib, joylashasizlar.

16 Ular Yoshuaga shunday deb javob berishdi:

— Siz buyurgan hamma narsani qilamiz, qayerga yuborsangiz boramiz. 17 Hamma
narsada Musoga qanday itoat qilgan boʻlsak, sizga ham shunday itoat qilamiz. Egangiz
Xudo, Muso bilan boʻlganidek, siz bilan birga boʻlsin! 18 Sizning aytgan soʻzlaringizga
qarshi chiqqanlarning, birorta buyrugʻingizga boʻysunmaganlarning jazosi oʻlimdir. Siz
faqat dadil va botir boʻling.

## 2–BOB

### Yoshua Yerixoga aygʻoqchilarni yuboradi

1 Yoshua Shitimdagi qarorgohdan* ikki kishini yashirincha aygʻoqchi qilib yubordi.
Yuborishdan oldin ularga: “Borib, Kan’on yurtini, ayniqsa, Yerixo shahrini* yaxshilab
koʻrib kelinglar”, dedi. Aygʻoqchilar Yerixoga ketishdi. Borib, Rahoba ismli bir
fohishaning uyida tunab qolishdi. 2 Yerixo shohiga: “Bugun kechqurun Isroil xalqidan bir
nechtasi butun yurtimizni tekshirish uchun kelishibdi” degan xabar yetib bordi.
3 Shunda shoh Rahobaga xabar yuborib: “Yurtimizni tekshirishga kelgan kishilar sening
uyingga kiribdi. Endi ularni tashqariga olib chiq”, deb buyurdi. 4 Lekin ayol oʻsha
kishilarni yashirib qoʻygan edi. U shohning odamlariga shunday dedi: “Toʻgʻri, oʻsha
kishilar menikiga kelgan edi, lekin ularning qayerdan kelganini bilmagandim. 5 Kech
tushib, shahar darvozasi yopilishidan oldin ular chiqib ketishdi. U kishilar qayerga

ketganini bilmayman. Agar tez orqasidan borsangiz, ularni ushlashingiz mumkin.”
[6] Aslida Rahoba ularni tomga olib chiqib, quritish uchun yoyib qoʻyilgan zigʻir
bogʻlamlari tagiga yashirib qoʻygan edi. [7] Shohning odamlari shahardan chiqib ketishi
bilanoq, shahar darvozasi yopildi*. Ular aygʻoqchilarni qidirib, Iordan daryosining
kechuv joyigacha borishdi.

[8] Aygʻoqchilar uxlashga yotishdan oldin Rahoba tomga chiqib, [9] ularga shunday dedi:
“Egangiz bizning yurtimizni sizlarga berganligini bilaman. Butun xalqimiz bilan
sizlardan qoʻrqib qolganmiz. Shu yerda yashaydiganlarning hammasi sizlar haqingizda
eshitib vahimaga tushgan. [10] Biz eshitdik, sizlar Misrdan chiqqaningizdan keyin, Egangiz
oldingizda Qizil dengiz* suvlarini quritibdi. Iordanning sharq tomonidagi Amor
xalqining shohlari Oʻg va Sixoʻnni nima qilganingizni, ularning odamlarini butunlay qirib
tashlaganingizni ham eshitdik. [11] Bu voqealar haqida eshitishimiz bilanoq yuraklarimiz
orqaga tortib ketdi, sizlardan qoʻrqqanimiz uchun jasoratimizdan asar ham qolmadi.
Chunki Egangiz Xudo yeru samodagi Xudodir. [12] Men sizlarga marhamat koʻrsatdim.
Endi shuning uchun Egangiz haqi qasam ichib, sening oilangga ham mehribonlik
qilamiz, deb kafolat bering. [13] Mana shu kafolat ota–onam, aka–ukam, opa–singillarim va
ularga qarashli boʻlganlarni saqlab qolishingizni, bizni oʻlimdan qutqarishingizni
bildirsin.” [14] Aygʻoqchilar unga shunday deyishdi: “Agar biz haqimizda hech kimga
aytmasang, Egamiz bizga shu yerni berganda, sen va sening oilangga marhamat
koʻrsatamiz, deb vaʼda beramiz. Sizlarga biror narsa boʻlsa, Xudo jonimizni olsin.”

[15] Rahobaning uyi shahar devorlariga taqalib qurilganligi uchun*, derazasi
shahardan tashqariga qarab turgan edi. Rahoba mana shu derazadan arqon tushirib,
aygʻoqchilarning qochishiga yordam berdi. [16] Ular ketishidan oldin, Rahoba: “Sizlarni
quvayotganlar topib olmasligi uchun qirlarga boringlar. Oʻsha yerda uch kun
yashirininglar. Ular qaytib kelganlaridan keyin oʻz yoʻlingizga ketaverasiz”, — degan edi.
[17-18] Aygʻoqchilar Rahobaga javoban shunday deyishgan edi: “Biz bu yerga hujum
qilganimizda mana shu qizil arqonni biz tushadigan derazangga bogʻlab, osiltirib
qoʻygin. Oilangdagilarning hammasi — ota–onang, aka–ukang, qarindosh–urugʻlaring
uyingda boʻlishi kerak, boʻlmasa, biz senga ichgan qasamimizdan xalos boʻlamiz.
[19] Birortasi eshigingdan tashqariga, koʻchaga chiqsa, oʻz oʻlimiga oʻzi javobgar boʻladi,
biz gunohkor boʻlmaymiz. Lekin sen bilan uy ichida boʻlganlarga birortasi qoʻl tekkizsa,
ularning oʻlimiga biz javobgar boʻlamiz. [20] Lekin mabodo biz haqimizda birovga ogʻiz
ochsang, sen bizga ichtirgan qasamdan xalos boʻlamiz.” [21] Rahoba: “Sizlar nima desangiz
shunday boʻlsin” degan soʻzlar bilan aygʻoqchilarni chiqarib yubordi. Ular oʻz yoʻllariga
ketishdi. Keyin Rahoba qizil arqonni derazasiga bogʻlab qoʻydi.

[22] Oʻsha aygʻoqchilar borib, qirlarda uch kun, ularni izlab yurganlar qaytguncha
turishdi. Ularni quvib ketganlar yoʻl boʻyidagi hamma joylarni izlab ham hech kimni
topa olmadilar. [23] Aygʻoqchilar qirdan qaytib tushishdi. Ular daryoni kechib oʻtib*,
Yoshuaning oldiga kelib, boʻlgan voqealarning hammasini unga aytib berishdi. [24] Ular
Yoshuaga: “Haqiqatan ham Egamiz butun yurtni bizning qoʻlimizga bergan. U yerda
yashovchilarning hammasi bizlarni deb vahimaga tushgan”, deyishdi.

# 3–BOB

### Isroil xalqi Iordan daryosini kechib oʻtadi

[1] Ertasiga tongda Yoshua butun Isroil xalqi bilan birga Shitim qarorgohidan chiqib,
Iordanga yetib keldi. Daryoni kechib oʻtishdan oldin ular oʻsha yerda qarorgoh qurishdi.
[2] Uch kundan keyin qabila nazoratchilari qarorgoh boʻylab yurib, [3] xalqqa shunday
deyishdi: “Levi ruhoniylari Egangiz Xudoning Ahd sandigʻini koʻtarib ketayotganini
koʻrganingizda yoʻlga chiqinglar. Uning orqasidan boringlar. [4] U sizga yoʻlni koʻrsatib
boradi, chunki sizlar bu yoʻlni bilmaysizlar. Lekin Sandiq bilan sizlarning orangizdagi
masofa taxminan ikki ming tirsak* boʻlishi kerak. Orangizdagi masofa mana shundan
kam boʻlmasin.” [5] Keyin Yoshua xalqqa: “Oʻzingizni poklang*, chunki ertaga Egamiz
oramizda moʻjizalar koʻrsatadi”, — dedi. [6] Ertasiga Yoshua ruhoniylarga shunday dedi:
“Ahd sandigʻini olib, xalqning oldida yuringlar.” Ruhoniylar Ahd sandigʻini koʻtarib, xalq
oldida borishdi.

[7] Egamiz Yoshuaga shunday dedi:

— Bugundan boshlab seni butun Isroil xalqi oldida koʻkka koʻtaraman, shunda ular
Men Muso bilan boʻlganimdek, sen bilan birga ekanimni bilishadi. [8] Ahd sandigʻini
koʻtarib boradigan ruhoniylarga aytasan: “Iordan daryosiga yetib borganingizdan keyin,
daryoga kirib toʻxtanglar.”

[9] Keyin Yoshua Isroil xalqiga shunday dedi:

— Yaqinroq kelib, Egangiz Xudoning gaplarini eshiting. [10-11] Mana, butun olam
Rabbiysining Ahd sandigʻi oldingizda Iordan daryosidan oʻtadi*. Shunday qilib, barhayot
Xudo sizlarning orangizda ekanligini, Uning Oʻzi Kan’on, Xet, Xiv, Pariz, Girgosh, Amor va
Yobus xalqlarini sizlarning oldingizdan albatta quvib yuborishini bilasizlar. [12] Endi Isroil
xalqining har bir qabilasidan bittadan, jami oʻn ikkita erkakni tanlab olinglar. [13] Butun
olam Rabbiysi — Egamizning Ahd sandigʻini koʻtargan ruhoniylarning oyoqlari Iordan
daryosining suvlariga tegishi bilanoq oqim toʻxtab qoladi, suv bir joyda yigʻilib turadi.

[14] Xalq oʻz chodirlarini yigʻib, Iordandan oʻtish uchun yoʻlga tushganda, Ahd
sandigʻini koʻtargan ruhoniylar ularning oldida borar edi. [15] Hosil mavsumi* boʻlgani
uchun Iordan suvi qirgʻoqlaridan ham toshib oqardi. Ahd sandigʻini koʻtargan
ruhoniylar Iordanga yaqinlashdilar. Ularning oyoqlari suvga tegishi bilanoq, [16-
17] daryoning oqimi toʻxtab qoldi. Suv uzoqda joylashgan Zoraton yonidagi Adam shahri*
oldida yigʻilib qoldi, Oʻlik dengizga* quyiladigan daryo suvi esa oqib ketdi, daryo oʻzani
qurib qoldi. Jamiki Isroil xalqi quruq yerdan yurib, Iordandan oʻtib boʻlmaguncha,
Egamizning Ahd sandigʻini koʻtargan ruhoniylar daryoning oʻrtasida, quruq yerda
turishdi. Xalq daryodan oʻtib, Yerixo shahrining yonidagi yerlarga bordi.

# 4–BOB

### Isroil xalqi toshlardan yodgorlik oʻrnatadi

[1] Butun xalq Iordandan oʻtib boʻlgandan keyin, Egamiz Yoshuaga shunday dedi:

[2] — Xalqning orasidan oʻn ikki kishini tanlagin, har bir qabiladan bittadan boʻlsin.
[3] Ularga: “Iordan daryosining oʻrtasidan, ruhoniylarning oyogʻi turgan joydan oʻn ikkita
tosh olib chiqinglar, bugun kechqurun qarorgoh quradigan joyga olib borib qoʻyinglar”,
deb buyurgin.

[4] Yoshua har bir Isroil qabilasidan tanlagan oʻn ikki kishini chaqirib, [5] ularga shunday
dedi: “Egangiz Xudoning Ahd sandigʻi oldiga, Iordanning oʻrtasiga borib, u yerdan har
biringiz Isroil qabilalarining har biri uchun bittadan tosh olinglar. Ularni yelkangizda
koʻtarib, qarorgohga olib boringlar. [6] Bu toshlar sizlarga esdalik boʻlib xizmat qiladi.
Vaqti kelib, farzandlaringiz sizlardan: «Bu toshlar nimani bildiradi?» deb soʻraganda,
[7] ularga Egamizning Ahd sandigʻi Iordan daryosidan oʻtayotganda, daryoning suvlari
toʻxtab qolganini aytib berasizlar. Bu toshlar sizlarga umrbod yodgorlik boʻlib qoladi.”

[8] Isroil xalqidan tanlangan kishilar Yoshua ularga buyurganday qilishdi. Egamiz
Yoshuaga aytganday, ular Iordanning oʻrtasidan har bir Isroil qabilasi uchun bittadan
tosh, jami oʻn ikkita tosh olib, oʻzlari bilan oʻsha kuni qarorgoh qurilgan joyga olib borib
qoʻyishdi. [9] Shundan keyin Yoshua yana oʻn ikkita tosh olib, Iordanning oʻrtasiga bir
yodgorlik qurdi. Bu yodgorlik Ahd sandigʻini koʻtargan ruhoniylar turgan joyga qurilgan
edi. U toshlar bugungacha* oʻsha yerdadir.

[10] Egamiz Yoshuaga, xalqqa aytgin, deb amr qilganlarining hammasi sodir
boʻlmaguncha, Sandiqni koʻtargan ruhoniylar Iordanning oʻrtasida turdilar. Yoshuaga
Muso mana shu yoʻl–yoʻriqlarni koʻrsatgan edi. Xalq tez–tez daryodan oʻtdi. [11] Hamma
daryodan oʻtib boʻlgandan keyin, Iordanning oʻrtasida turgan ruhoniylar Egamizning
Ahd sandigʻini koʻtarib, daryodan chiqdilar. Butun xalq buni koʻrib turdi. [12] Muso
buyurganday*, Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasi yarmining erkaklari ham
qurollanib, daryodan oʻtgan edilar. Ular Isroil xalqining oldingi saflarida edilar. [13] Jangga
tayyor oʻsha qirq mingga yaqin kishi Egamiz boshchiligida Yerixo yonidagi tekislikka
oʻtdi.

[14] Oʻsha kuni Egamiz qilgan ishlari orqali Isroil xalqining koʻzi oldida Yoshuaning
nomini yuksaltirdi*. Ular butun umri davomida Musoni qanday hurmat qilgan boʻlsalar,
Yoshuani ham shunday hurmat qildilar.

[15-16] Oʻsha kuni Egamiz Yoshuaga: “Ahd sandigʻini* koʻtargan ruhoniylarga,
Iordandan chiqinglar, deb buyurgin”, degan edi. [17] Yoshua ruhoniylarga: “Iordandan
chiqinglar!” deb buyurganda, [18] Egamizning Ahd sandigʻini koʻtargan ruhoniylar
Iordanning oʻrtasidan chiqib kelishgandi. Ularning oyoqlari narigi qirgʻoqning quruq
yeriga tegishi bilanoq, Iordanning suvlari yana oldingiday qirgʻoqlardan toshib oqa
boshlagandi.

[19] Shunday qilib, xalq birinchi oyning* oʻninchi kunida Iordandan oʻtdi. Ular Yerixo
shahrining sharqidagi Gilgal* degan joyda qarorgoh qurishdi. [20] Ular Iordandan olgan
oʻn ikkita toshni Yoshua Gilgalda oʻrnatib, [21] Isroil xalqiga shunday dedi:

— Vaqti kelib, farzandlaringiz sizlardan: “Bu toshlar nimani bildiradi?” deb soʻrasa,
[22] sizlar shunday javob berasizlar: “Isroil xalqi mana shu yerda quruq yerdan yurib
Iordandan oʻtgandi. [23] Egamiz Xudo biz oʻtishimiz uchun Qizil dengizni* quritganday, bu
yerda ham biz oʻtib boʻlmagunimizcha Iordanning suvlarini quritgan edi. [24] Yer yuzidagi
barcha xalqlar Egamizning qudratli ekanini bilishi hamda sizlar Xudoyingiz —
Egamizdan bir umr qoʻrqishingiz uchun shunday qilgan edi.”

## 5–BOB

[1] Isroil xalqi Iordan daryosidan oʻtib boʻlguncha, Egamiz ular uchun daryoning suvini
quritgan edi. Iordanning gʻarbidagi Amor shohlari va Oʻrta yer dengizi yonidagi Kanʼon

shohlari bu haqda eshitib, yuraklari orqaga tortib ketdi. Isroil xalqidan qoʻrqqanlari
uchun ularning jasoratidan asar ham qolmadi.

**Isroil xalqi Gilgalda sunnat qilinadi**

2 Oʻsha paytda Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Toshdan pichoqlar yasab*, Isroil
xalqining bu yangi avlodini sunnat qilinglar*.” 3 Yoshua toshdan pichoqlar yasatib, ularni
Givot–Xariloʻt* degan joyda sunnat qildirdi. 4 Yoshua sunnat qilganining sababi
quyidagicha: Misrdan chiqqan, jangga yaroqli erkaklarning hammasi sahrodagi safar
davomida oʻlgan edi. 5 Misrdan chiqqanlarning hammasi sunnat qilingan boʻlsa–da,
sahroda tugʻilgan oʻgʻil bolalar sunnat qilinmagan edi. 6 Egamizga itoat qilmagan,
Misrdan chiqqanda jangga yaroqli boʻlgan naslning hammasi oʻlmaguncha, Isroil xalqi
qirq yil sahroda sargardon boʻlib yurdi. Egamiz ularga: “Men ota–bobolaringizga va’da
qilib, sizlarga beraman degan sut va asal oqib yotgan yurtni* hech qachon
koʻrmaysizlar”, deb qasam ichgan edi. 7 Misrdan chiqqanlarning oʻrniga Egamiz ularning
farzandlarini bino qildi. Oʻsha yangi avlod yoʻlda sunnat qilinmagan edi. Mana shuning
uchun Yoshua ularni sunnat qildi.
8 Hamma erkaklar sunnat qilingandan keyin, tuzalguncha qarorgohda qoldilar.
9 Egamiz Yoshuaga: “Bugun Men sizlardan Misrdagi qullik sharmandaligini olib
tashladim”, — dedi. Shuning uchun oʻsha joy bugungacha Gilgal* deb ataladi. 10 Isroil
xalqi Gilgalda turgan paytlarida oyning oʻn toʻrtinchi kunida* kechqurun Yerixo yonidagi
tekislikda Fisih ziyofatini oʻtkazdilar. 11 Fisih ziyofatining ertasi kuniyoq ular oʻsha
yerning hosilidan pishirilgan xamirturushsiz non* va qovurilgan don yedilar. 12 Isroil
xalqi oʻsha yurtda yetishtirilgan hosilni yegan kundan boshlab, Xudo ularga manna*
yubormay qoʻydi. Oʻsha yil Isroil xalqi Kan’on yerida yetishtirilgan hosildan yedi, ular
mannani boshqa koʻrmadilar.

**Yoshua va qilich ushlab turgan kishi**

13 Bir kuni Yoshua Yerixo shahri yaqinida boʻlganda, qarshisida qilich ushlagan bir
kishini koʻrib qoldi. Yoshua uning oldiga borib: “Sen biznikimisan yoki dushman
tarafdamisan?” — deb soʻradi. 14 “Hech qaysisi, — deb javob berdi u kishi, — men
Egamiz lashkarining lashkarboshisiman. Mana, keldim.” Yoshua muk tushib, unga ta’zim
qildi. “Qulingizga nima buyurasiz, hazratim?” — deb soʻradi Yoshua. 15 Egamiz
lashkarining lashkarboshisi Yoshuaga shunday dedi: “Oyoq kiyimingni yech, sen turgan
yer muqaddasdir.” Yoshua u aytganday qildi.

**Yerixo qulaydi**

16 Yerixoliklar Isroil xalqidan qoʻrqib, shahar darvozalarini mahkamlab yopib,
qoʻriqchilar qoʻyishdi. Endi shaharga hech kim kirolmas, u yerdan hech kim chiqolmas
edi.

# 6–BOB

1 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Mana, Yerixo shahrini shohiyu sipohlari bilan birga
sening qoʻlingga berdim. 2 Shahar atrofini barcha jangchilar bilan bir marta aylan. Olti
kun shunday qilasan. 3 Yettita ruhoniy Ahd sandigʻining oldida yursin. Ularning qoʻlida
qoʻchqor shoxidan qilingan bittadan burgʻu boʻlsin. Yettinchi kuni shahar atrofini yetti
marta aylaninglar, ruhoniylar burgʻuni chalib yurishsin. 4 Oʻsha kuni burgʻularning uzoq

chalinganini eshitishi bilanoq, hamma bor ovozi bilan baqirsin. Shunda shaharning
devorlari qulaydi, hamma shaharga hujum qilib, toʻgʻri kirib boraveradi.” 5 Yoshua
ruhoniylarni chaqirib, ularga shunday dedi: “Ahd sandigʻini koʻtaringlar, yettitangiz esa
bittadan burgʻu olib, Egamizning Ahd sandigʻi oldida yuring.” 6 Odamlarga esa: “Borib,
shaharni aylaninglar, qurollangan jangchilarning hammasi Egamizning Sandigʻi oldida
borsin”, — dedi.

7 Yoshua xalqqa buyurganday, Egamiz oldida yettita ruhoniy burgʻularni chalib
borishar, Egamizning Ahd sandigʻi esa ularning orqasidan borardi. 8 Qurollangan
kishilar burgʻu chalayotgan ruhoniylar oldidan borishdi, Sandiqning orqasidan esa
qorovullar boʻlinmasi bordi. Burgʻular toʻxtamay chalinib turar edi. 9 Yoshua xalqqa
shunday degan edi: “Men aytmagunimcha, sizlar baqirmang, ovozingizni chiqarmang.
Men sizlarga, baqiringlar, deb aytgan kundagina baqirasizlar.” 10 Egamizning Sandigʻi
shaharni bir marta aylanib keldi. Ular qarorgohga qaytib kelib, tunni oʻsha yerda
oʻtkazishdi.

11 Yoshua ertasiga saharda turdi, ruhoniylar yana Egamizning Sandigʻini koʻtarishdi.
12 Yettita burgʻuni koʻtargan yetti ruhoniy Egamiz Sandigʻining oldida borishdi. Ular
burgʻularni toʻxtamay chalishardi. Qurollangan kishilar esa ularning oldida borishardi.
Egamizning Sandigʻi orqasida esa qorovullar boʻlinmasi borardi, burgʻular toʻxtamay
chalinayotgan edi. 13 Ikkinchi kuni ham ular shahar atrofini bir marta aylanib,
qarorgohga qaytib kelishdi. Ular olti kun shunday qildilar.

14 Yettinchi kuni erta tongda turib, oldingiday shaharning atrofini aylandilar, faqat
oʻsha kuni yetti marta aylanishdi. 15 Yettinchi marta aylanayotganda, ruhoniylar
burgʻuni chalar ekan, Yoshua odamlarga shunday dedi: “Baqiringlar, chunki Egamiz
shaharni bizga bergan. 16 Shahar aholisiyu shahar ichidagi hamma narsa Egamizga
bagʻishlanib, yoʻq qilinsin*. Faqat fohisha Rahoba va uning xonadon ahli tirik qoladi,
chunki u biz yuborgan aygʻoqchilarni yashirgan edi. 17 Sizlar esa Egamizga bagʻishlangan
narsalarning hech biriga yaqinlashmang, tagʻin oʻsha narsalarni olib, oʻzingizni halok
qilmang. Isroil xalqining qarorgohiga kulfat keltirmang, qarorgoh vayron boʻlmasin.
18 Chunki barcha oltin, kumush, hamma bronza va temirdan yasalgan idishlar Egamizga
bagʻishlangandir. Ular Egamizning xazinasiga keltirilsin.” 19 Ruhoniylar burgʻularni
chaldilar. Xalq burgʻu tovushini eshitishi bilanoq baland ovoz bilan baqirgan edi, butun
shahar devorlari qulab tushdi. Isroil jangchilari turgan joylaridan toʻgʻri shaharga kirib,
unga hujum qilishdi. Isroil jangchilari shaharni qoʻlga kiritishdi. 20 Ular shahardagi
hammani, erkagu ayollarni, yoshu qarilarni, mol–qoʻy, eshaklarni — butun jonzotni
qirib tashladilar.

21 Yoshua oʻsha yerni tekshirib kelgan ikki kishiga aytdi: “Fohishaning uyiga
boringlar. Ichgan ontingizga amal qilib, u bilan uyidagilarining hammasini olib chiqing.”
22 Aygʻoqchilik qilgan kishilar borib, Rahobani, uning ota–onasini, aka–ukalarini, hamma
qarindoshlarini shahardan olib chiqib, ularni Isroil qarorgohining yoniga, xavfsiz joyga
keltirdilar*. 23 Isroil jangchilari shaharni uning ichidagi bor narsasi bilan yondirib
tashladilar. Faqat oltin, kumush, bronza va temirdan yasalgan idishlarni Egamizning
uyi* xazinasiga keltirdilar. 24 Fohisha Rahoba va uning hamma qarindoshlarini Yoshua
saqlab qoldi, chunki Yoshua Yerixoni tekshirib kelish uchun yuborgan aygʻoqchilarni u
yashirgan edi. Uning xonadoni oʻshandan beri Isroilda yashaydi*.

25 Keyin Yoshua qasam ichib, quyidagilarni aytdi:

"Yerixo shahrini qayta qurmoqchi boʻlgan odam
Egamiz oldida laʼnati boʻlsin!*
U oʻz toʻngʻich oʻgʻlining joni evaziga shahar poydevorin yotqizar,
Kenja oʻgʻlining joni evaziga darvozalar oʻrnatar!"

26 Egamiz Yoshua bilan birga edi. Yoshuaning shuhrati butun yurtga yoyildi.

# 7–BOB

### Oxunning gunohi

1 Ammo Isroil xalqi bagʻishlangan narsalar* haqida Egamiz bergan amrni buzdi.
Oxun ismli bir kishi bagʻishlangan narsalarning bir nechtasini olgan ekan. Oxun Yahudo
qabilasidan boʻlib, Zerax urugʻidan boʻlgan Zimrining* nevarasi, Karmining oʻgʻli edi.
Egamiz Isroil xalqidan qattiq gʻazablandi*.
2 Shu orada Yoshua bir necha kishini tanlab, ularga: "Borib, Ay shahrini* tekshirib
kelinglar", — dedi. Ay shahri Baytilning sharqida, Bayt–Obun yaqinida joylashgan edi.
Ular borib, tekshirdilar. 3 Qaytib kelib, Yoshuaga: "Hammamiz borishimiz shart emas,
ikki–uch mingta odam chiqib hujum qilsa, bas. Ay aholisining soni kam, shuning uchun
butun xalq u yerga borib ovora boʻlmasin", dedilar. 4 Shunday qilib, uch mingtacha odam
shaharga hujum qildi, lekin ular Ay aholisining oldiga tushib qochdilar. 5 Ayliklar
shahardan chiqib, Isroil jangchilarini tosh qaziladigan joygacha* quvib bordilar. Qir yon
bagʻrida oʻttiz oltitacha Isroil odamlarini oʻldirdilar. Bu hodisadan keyin butun Isroil
xalqining yuragi orqaga tortib ketdi.
6 Shunda Yoshua bilan Isroil oqsoqollari qaygʻudan kiyimlarini yirtib, boshlariga
tuproq sochdilar. Egamizning Sandigʻi oldida yerga muk tushishdi–da, kechgacha shu
holda qolishdi. 7 Yoshua shunday dedi: "Ey Egamiz Rabbiy! Nima uchun bu xalqni Iordan
daryosidan olib oʻtding? Nahotki bizlarni Amor xalqining qoʻliga berib, yoʻq qilish uchun
shunday qilgan boʻlsang?! Biz Iordanning narigi tomonida qolaversak boʻlmasmidi?! 8 Ey
Rabbiy, yana nima ham derdim, mana, Isroil xalqi dushmanlarining oldiga tushib
qochdi. 9 Endi Kanʼon xalqlari va mana shu yerlar aholisining hammasi bu haqda eshitib
bizni qurshab oladilar. Nomimizni yer yuzidan oʻchirib yuboradilar. Agar shunday
boʻlsa, ulugʻvorligingni qanday qilib koʻrsatasan?"
10 Egamiz Yoshuaga dedi: "Oʻrningdan tur! Nima uchun muk tushib yotibsan? 11 Isroil
xalqi gunoh qildi, ular bilan qilgan ahdimni buzdi. Ular Menga bagʻishlangan
narsalardan oʻgʻirlab olishdi. Buning ustiga, aldab, oʻgʻirlangan narsalarni oʻzlarining
narsalari orasiga yashirib qoʻydilar. 12 Shuning uchun Isroil xalqi dushmanlariga bas
kela olmayapti. Chunki ularning oʻzi ham yoʻq qilinadigan, Menga bagʻishlangan
narsaday boʻlib qolgan. Endi ular dushmanlariga magʻlub boʻlib qochadilar. Menga
bagʻishlangan narsalarni orangizdan yoʻq qilmasangiz, Men sizlar bilan birga
boʻlmayman.
13 Endi Isroil xalqini pokla. Ularga shunday degin: oʻzingizni ertangi kun uchun
tayyorlab, poklang. Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: «Ey Isroil,
orangizda Menga bagʻishlangan narsalar bor. Orangizdagi shu narsalarni olib
tashlamaguningizcha, dushmanlaringizga bas kela olmaysiz.»

[14] Shuning uchun ertalab barcha qabilalar birma–bir Egamizning huzuriga kelishadi.
Egamiz bir qabilani tanlaydi*. Ana shu qabilaning urugʻlari ham birma–bir keladi.
Egamiz ular orasidan bir urugʻni tanlaydi. Oʻsha urugʻning oilalari birma–bir kelishadi.
Egamiz bir oilani tanlaydi. Oʻsha oilaning aʼzolari birma–bir keladi. [15] Laʼnatlangan
narsalarni olgan odamni Egamizning Oʻzi koʻrsatadi. Oʻsha odam bor narsasi bilan
olovda yondiriladi, chunki u Egamiz bilan qilingan ahdni buzib, Isroilda aql bovar
qilmaydigan ish qildi.”

[16] Shunday qilib, ertasi kuni tongda, Yoshuaning buyrugʻiga koʻra, Isroil qabilalari
birma–bir Egamizning huzuriga kelishdi. Egamiz Yahudo qabilasini tanladi. [17] Endi
Yahudo qabilasining urugʻlari birma–bir keldi, shunda Zerax urugʻi tanlandi. Zerax
urugʻining oilalari birma–bir kelganda, Zimri oilasi tanlandi. [18] Zimri oila aʼzolari birma–
bir kelishdi, Karmi oʻgʻli Oxun tanlandi. U Yahudo qabilasidan boʻlib, Zerax urugʻidan
boʻlgan Zimrining nevarasi edi. [19] Yoshua Oxunga shunday dedi: “Oʻgʻlim, haqiqatni
aytaman, deb Isroil xalqining Xudosi — Egamizning nomi bilan qasam ich, gunohingni
tan olgin. Nima qilganingni yashirmay menga aytib ber.” [20] Oxun Yoshuaga shunday
javob berdi: “Ha, toʻgʻri. Isroil xalqining Xudosi — Egamizga qarshi gunoh qilgan
menman. [21] Oʻsha kuni oʻlja orasida Shinardan* keltirilgan chiroyli toʻnni, 500 misqol*
kumush va ogʻirligi 125 misqol* keladigan bir boʻlak tillani koʻrib qoldim. Koʻnglim
tusab, ularni oldim. Ularni chodirimning ichida yerga koʻmib qoʻyganman, kumush eng
tagida.”

[22] Yoshua bir nechta odamni yubordi. Ular chodirga yugurib borib qarashsa, u
narsalar rostdan ham oʻsha yerda yashirilgan ekan. Ularning eng tagida kumush bor edi.
[23] Ular narsalarni chodirdan olib, Yoshua va butun Isroil xalqiga olib kelishdi. Ular
narsalarni Egamiz oldiga yoyib qoʻyishdi. [24] Keyin Yoshua va butun Isroil xalqi Zerax
oʻgʻli Oxunni oʻgʻirlangan kumush, toʻn, tilla boʻlagi hamda oʻgʻil–qizlari, mol–qoʻylari,
eshaklari, chodiriyu bor narsasi bilan birga Oxor soyligiga olib borishdi. [25] Yoshua:
“Boshimizga rosa ham kulfat keltirding–ku. Mana endi bugun Egamiz sening boshingga
ham kulfat keltiradi”, — dedi. Butun Isroil xalqi Oxunni va uning oilasini toshboʻron
qilib oʻldirdi–da, ularning jasadlarini olovda kuydirdi. [26] Keyin ularning ustiga katta bir
tosh uyumini toʻpladi, toshlar bugungacha oʻsha yerdadir. Shuning uchun ushbu yer
oʻsha paytdan beri Oxor* soyligi deb ataladi. Shundan keyin Egamiz gʻazabidan tushdi.

# 8–BOB

### Ay shahri magʻlub boʻladi va vayron qilinadi

[1] Egamiz Yoshuaga aytdi: “Qoʻrqma, vahimaga tushma, barcha jangga yaroqli
erkaklarni boshlab, Ay shahriga borgin. Mana, Ay shohini uning xalqi, shahri va yeri
bilan birga senga berganman. [2] Yerixo va uning shohini nima qilgan boʻlsangiz, Ay va
uning shohini ham xuddi shunday qilasizlar. Faqat shahardagi mol–mulklarni va barcha
chorvani oʻzingizga oʻlja qilib olsangiz boʻladi. Shaharning orqasida pistirma qoʻyinglar.”

[3] Yoshua va hamma jangga yaroqli erkaklar Ayga hujum qilishga tayyorlanishdi.
Yoshua oʻz lashkari orasidan oʻttiz ming jangchini tanlab oldi. Tunda joʻnatayotib,
[4] ularga shunday buyruq berdi:

— Borib, shaharning orqasida pistirma qoʻying, shahardan uzoqqa bormang,
hammangiz sergak boʻlib turing. [5] Men odamlarim bilan shaharga yaqinlashaman. Ular

bizga qarshi chiqqanda, oldingiday biz ulardan qochamiz. [6] Bizni quvib, dushmanlar
shahardan ancha uzoqlashib ketadi. Ular oʻzlaricha: “Dushmanlarimiz yana oldingiday
bizdan qochyapti”, deb oʻylashadi. Biz qochayotganimizda esa [7] sizlar pistirmadan
chiqib, shaharni olasizlar. Egangiz Xudo uni sizlarning qoʻlingizga beradi. [8] Shaharni
olganingizdan keyin, Egamiz buyurganday, uni yondirasizlar. Mana shu buyruqlarni
bajaring.

[9] Shu soʻzlar bilan Yoshua ularni joʻnatib yubordi. Ular Ayning gʻarbida — Ay va
Baytil oraligʻida pistirma qoʻyib, oʻsha yerda kutib yotdilar. Oʻsha tunni Yoshua
qarorgohda oʻtkazdi.

[10] Ertasi kuni, tong payti Yoshua jangchilarini bir joyga yigʻib, qabilalarning
boshliqlari bilan birga ularni Ayga boshlab bordi. [11] Barcha jangga yaroqli kishilar u
bilan ketdi. Ular shaharga yaqinlashib, Ayning shimolida qarorgoh qurishdi. Ay va
ularning orasida jarlik bor edi. [12] Yoshua besh mingga yaqin odamni shaharning
gʻarbiga, Ay va Baytil oraligʻida pistirma qoʻyishga yubordi. [13] Shunday qilib, jangchilar
jangovar holatga keltirildi. Ularning asosiy qismi shaharning shimolida, qorovullar
boʻlinmasi esa shaharning gʻarbida edi. Yoshua esa oʻsha tunni jarlikda oʻtkazdi. [14] Buni
koʻrgan Ay shohi ertasi kuni tongda shoshilib, butun lashkari bilan Iordan vodiysi*
roʻparasidagi bir joyga Isroil xalqiga qarshi jang qilishga bordi. Ammo shoh shaharning
orqasida oʻziga qarshi pistirma qoʻyilganini bilmas edi. [15] Yoshua va butun Isroil lashkari
oʻzlarini yengilayotganday koʻrsatib, sahro tarafga* qochishdi. [16] Yoshua va Isroil
qoʻshinini quvish uchun Ay shahridagi barcha erkaklar chaqirildi. Ular Yoshua va Isroil
lashkarini quvib, shahardan ancha uzoqlashib ketishdi. [17] Ay va Baytilda Isroil lashkarini
quvish uchun chiqmagan birorta ham erkak qolmadi. Shaharni qoʻriqlashga hech kimni
qoldirmay, Isroil lashkarini ta’qib qildilar.

[18] Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Qoʻlingdagi nayzani Ay tomonga uzat, oʻsha
shaharni sening qoʻlingga beraman.” Yoshua qoʻlidagi nayzasini shahar tomonga uzatdi.
[19] U qoʻlini uzatishi bilanoq jangchilar pistirmadan otilib chiqib, shaharga hujum
qilishdi. Ular shaharni qoʻlga olib, darrov unga oʻt qoʻyishdi. [20-21] Shahardan tutun
chiqayotganini koʻrgan Yoshua va Isroil lashkari, “Pistirmadagilar shaharni oldi” deb,
ortiga qaytgan edilar. Ular Ay shahrining odamlariga hujum qila boshlagan edilar. Ay
lashkari orqaga qarasa, yonayotgan shaharning tutuni koʻkka koʻtarilyapti. Ular na u
yoqqa, na bu yoqqa qocha olardilar, chunki sahroga qochgan Isroil lashkari endi orqaga
burilib, ularga qarshi chiqqan edi. [22] Isroil lashkarining shahardagi qismi ham Ay
odamlariga qarshi chiqqandi. Isroil lashkari ularni orqa tomondan ham, old tomondan
ham oʻrab olgan edi. Isroil lashkari ularning hammasini qirib tashladi. Hech kim tirik
qolmadi, birortasi ham qochib keta olmadi. [23] Ammo Ay shohini tiriklayin ushlab,
Yoshuaning huzuriga olib kelishdi.

[24] Isroil lashkari shahar tashqarisida — sahroda butun Ay qoʻshinini qirib tashlashdi.
Ularning hammasi halok boʻlgandan keyin Isroil lashkari Ayga borib, u yerda
qolganlarning hammasini yoʻq qildi. [25] Oʻsha kuni butun Ay aholisi, hammasi boʻlib oʻn
ikki mingta erkak va ayol halok boʻldi. [26] Ayda yashovchilarning hammasi yoʻq
qilinmaguncha, Yoshua nayza ushlagan qoʻlini tushirmadi. [27] Egamiz Yoshuaga
buyurganday, Isroil lashkari faqatgina mol–qoʻy va shahar aholisining mol–mulkini
oʻzlariga oʻlja qilib oldi. [28] Yoshua Ay shahrini yondirib yubordi. Oʻsha shahar
bugungacha* vayron boʻlib yotibdi. [29] Ay shohini esa qatl ettirib, jasadini tik oʻrnatilgan

xodaning uchiga qoqtirdi. Uning jasadi kechgacha* oʻsha yerda osilib turdi. Quyosh botgandan keyin, Isroil jangchilari Yoshuaning buyrugʻiga koʻra, jasadni xodadan tushirib, shahar darvozasining ostonasiga tashladilar. Uning ustiga katta tosh uyumi toʻpladilar. Shu tosh uyumi bugungacha oʻsha yerdadir.

### Yoshua Ebal togʻida Tavrot kitobidan oʻqiydi

30 Keyin Yoshua Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga Ebal togʻida qurbongoh
qurdi*. 31 U qurbongohni Egamizning quli Musoning Tavrot kitobidagi* koʻrsatmalarga*
rioya qilgan holda, temir asbob tegmagan, yoʻnilmagan toshlardan qurgan edi. Xalq
oʻsha qurbongohda Egamizga kuydiriladigan qurbonlik va tinchlik qurbonliklari keltirdi.
32 Oʻsha yerda — Isroil xalqining koʻzi oldida Yoshua toshlarga Muso yozgan
qonunlarning nusxasini yozdi.
33 Qabila oqsoqollari, nazoratchilari, hakamlari, butun Isroil xalqi va ularning orasida
yashayotgan qondosh boʻlmagan odamlar Egamizning Ahd sandigʻi qarshisida — uni
koʻtarib turgan levi ruhoniylarining oldida turishdi. Xalqning yarmi Garizim togʻi
etagida, yarmisi Ebal togʻi* etagida turardi. Egamizning quli Muso, Isroil xalqini duo
qilish vaqti kelganda shunday qilinglar, deb buyurgan edi*. 34 Keyin Yoshua Tavrot
kitobida yozilganday, qonunlarning har bir soʻzini, baraka va la’natlarga oid parchalarni
oʻqidi. 35 Butun Isroil jamoasi oldida, ayollaru bolalar, Isroil xalqi orasida yashayotgan,
ularga qondosh boʻlmaganlar oldida, Muso ularga buyurgan qonunlarni Yoshua bitta
qoldirmay oʻqidi.

## 9–BOB

### Givonliklar Yoshuani aldashadi

1 Iordan daryosining gʻarb tomonida turadigan barcha shohlar Yoshuaning
gʻalabalari haqida eshitishgan edi. Ular qirlarda, qirlarning etaklarida, butun Oʻrta yer
dengizi* qirgʻogʻi boʻylab, to shimoldagi Lubnongacha boʻlgan joyda yashaydigan Xet,
Amor, Kan’on, Pariz, Xiv va Yobus xalqlarining shohlari edilar. 2 Oʻsha shohlar oʻz
qoʻshinlarini birlashtirib, Yoshua va butun Isroil xalqiga qarshi jang qilishga toʻpladilar.
3 Ammo Givon* aholisi Yoshuaning Yerixo va Ay shaharlarini nimalar qilgani haqida
eshitib, 4 ayyorlik bilan ish tutdi. Ulardan bir nechtasi yoʻlga tayyorgarlik koʻrib*, oʻz
eshaklariga eski xurjunlarni va yirtilib yamalgan eski meshlarni yukladilar. 5 Oyoqlariga
eski, yamalgan oyoq kiyimlar, ustilariga esa juldur kiyimlar kiyishdi. Ular olgan
nonlarning suvi qochib, mogʻor bosgan edi. 6 Ular Gilgaldagi qarorgohga* borib, Yoshua
va butun Isroil xalqiga:
— Biz juda ham olis bir yurtdan keldik, biz bilan sulh tuzinglar, — deyishdi. 7 Ammo
Isroil xalqi Xiv xalqidan boʻlgan bu odamlarga* shunday dedi:
— Balki sizlar bizga yaqin joyda yasharsizlar, biz qanday qilib sizlar bilan sulh tuzamiz?*
8 Shunda ular Yoshuaga:
— Biz sizlarning qullaringizmiz, — deyishdi. Yoshua esa ulardan:
— Sizlar kimsizlar? Qayerdan keldingizlar? — deb soʻradi. 9 Ular Yoshuaga shunday
deb javob berishdi:
— Biz sizning qullaringizmiz, Egangiz Xudoni deb juda ham uzoq bir yurtdan keldik.
Biz sizning Xudoyingiz haqida eshitdik. U Misrda nima qilganini, 10 Iordanning

sharqidagi Amor xalqlarining ikki shohini — Xashbon shohi Sixoʻnni va Ashtaroʻtda
yashagan Bashan shohi Oʻgni nimalar qilganini* eshitdik. [11] Shuning uchun
oqsoqollarimiz va yurtimiz aholisi bizni sizlarning oldingizga yuborib: "Uzoq safarga
tayyorlaninglar. Isroil xalqi oldiga yetib borgach, bizning xalqimiz ularga qul ekanligini
aytib, ular bilan sulh tuzib kelinglar", deb tayinlashdi. [12] Mana, nonimizga qarang, yoʻlga
chiqqanimizda issiqqina edi, endi esa suvi qochib, mogʻor bosib qolgan. [13] Mana bu
meshlar sharobga toʻldirganimizda yangi edi, endi esa qarang, yorilib ketgan, ust–
boshimiz va oyoq kiyimlarimiz ham yoʻl uzoqligidan eskirib ketdi.

[14] Isroil oqsoqollari ularning oziq–ovqatlarini tekshirib koʻrdilar, Egamizdan esa
yoʻl–yoʻriq soʻramadilar. [15] Yoshua ular bilan tinchlik sulhini tuzdi. Jamoa oqsoqollari
ularni oʻldirmaslikka qasam ichib, sulhni maʼqulladilar.

[16] Sulh tuzilgandan keyin uch kun oʻtgach, Isroil xalqi Givonliklar oʻzlariga yaqin
joyda yashashlarini eshitib qoldi. [17] Isroil xalqi yoʻlga chiqib ularning shaharlariga uch
kunda yetib borishdi. Givon, Xafira, Baroʻt va Xirat–Yoʻrim* ularga qarashli shaharlar
edi. [18] Ammo Isroil xalqi ularga hujum qilmadi, chunki jamoa oqsoqollari Isroil xalqining
Xudosi — Egamiz nomi bilan qasam ichib, ularga vaʼda berishgan edi. Shunda butun
jamoa mingʻillab, oqsoqollarga nolidi. [19] Oqsoqollar jamoaga shunday dedilar:

— Biz ularga Isroil xalqining Xudosi — Egamiz nomi bilan qasam ichib vaʼda
berganmiz, endi biz ularga tegmasligimiz kerak. [20-21] Mayli, yashayverishsin, ichgan
qasamimizni buzib, boshimizga Egamizning gʻazabini keltirmaylik. Ammo Givonliklar
butun jamoa uchun oʻtin yoruvchi va suv tashuvchi boʻlib qolsinlar.

Shunday qilib, oqsoqollar Givonliklarga nisbatan oʻz vaʼdasida qoldilar.

[22] Yoshua Givonliklarni chaqirib soʻradi:

— Bizga yaqin joyda yasharkansiz. Nimaga, sizlardan uzoq joyda yashaymiz, deb
bizni aldadingiz? [23] Shuning uchun endi sizlar laʼnatisizlar, to abad Xudoyimning uyi*
uchun oʻtin yoruvchi, suv tashuvchi qul boʻlib qolasizlar.

[24] Ular Yoshuaga javob berdilar:

— Biz aniq eshitdik, Egangiz Xudo Oʻzining quli Musoga butun yurtni sizlarga berib,
uning butun aholisini qirib tashlashni buyuribdi. Oʻz jonimizni oʻylab, sizlardan
qoʻrqqanimizdan shu ishni qildik. [25] Endi biz sizning qoʻlingizdamiz, nima toʻgʻri va nima
yaxshi, deb oʻylasangiz, bizni shunday qiling.

[26] Isroil xalqi Givonliklarni oʻldirishiga Yoshua yoʻl qoʻymadi. [27] Ammo oʻsha kuni
Yoshua ularni qurbongoh va Isroil jamoasi uchun oʻtin yoruvchi va suv tashuvchi qilib
qoʻydi. Egamizning qurbongohi qayerda qurilishidan qatʼiy nazar, ular oʻsha vazifalarni
bajaradigan boʻlishdi. Hatto bugungacha* ularning vazifasi shudir.

## 10–BOB

### Isroil xalqi janubdagi shohlarni magʻlub qiladi

[1] Quddus* shohi Odonisidiq eshitdiki, Yoshua Ay shahrini qoʻlga kiritibdi, uni
butunlay vayron qilibdi, Yerixo va uning shohini nimalar qilgan boʻlsa, Ay shahrini va
uning shohini ham shunday qilibdi. Givonliklar ham Isroil xalqi bilan sulh tuzganini,
endi ular bilan tinch–totuv yashayotganlarini Odonisidiq eshitib, [2] juda qoʻrqib ketdi.
Axir, Givon shahri ulkan shahar boʻlib, oʻz shohiga ega boʻlgan shaharlarday katta, Ay
shahridan ham kattaroq edi–da. Givon aholisining barcha erkaklari ham juda mohir

jangchi edilar. 3 Xevron shohi Xoʻxam, Yarmut shohi Pirom, Laxish shohi Yofiya va
Eglon* shohi Dabir Quddus shohi Odonisidiqdan shunday xabar olishdi: 4 “Kelib, menga
yordam bering. Birga Givonga hujum qilaylik, chunki ular Yoshua va butun Isroil xalqi
bilan sulh tuzibdi.” 5 Shunda Quddus shohi, Xevron shohi, Yarmut shohi, Laxish shohi va
Eglon shohi — Amor xalqlarining beshala shohlari kuchlarini yigʻdilar. Barcha
qoʻshinlari bilan Givonni oʻrab olib, hujum qildilar.

6 Givonliklar Yoshuaga — Gilgaldagi qarorgohga shunday xabar yubordilar:
“Qirlardagi hamma Amor shohlari oʻz qoʻshinlari bilan bizlarga qarshi chiqishdi.
Qullaringizni tark etmang! Tez kelib bizlarni qutqaring, bizga yordam bering.” 7 Yoshua
butun lashkari bilan Gilgaldan chiqdi. Ularning orasida eng zoʻr jangchilar ham bor edi.
8 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Ulardan qoʻrqma, ularni sening qoʻlingga berganman,
ularning birortasi ham senga bas kela olmaydi.” 9 Yoshua oʻz lashkari bilan Gilgaldan*
chiqqandan keyin tuni bilan yoʻl bosib, Amor qoʻshinlarining ustiga toʻsatdan bostirib
bordi. 10 Butun Isroil lashkari oldida Egamiz Amor qoʻshinlarini vahimaga soldi. Isroil
lashkari Givonda ularning koʻplarini qilichdan oʻtkazdi. Bayt–Xoʻronga chiqadigan yoʻl
bilan quvib, to Ozikah va Makkedoga yetib* borguncha yoʻlda Amor qoʻshinlarini yoʻq
qildi.

11 Ular Isroil lashkaridan qochib, Bayt–Xoʻrondan pastga tushayotganlarida, to
Ozikahga yetgunlaricha Egamiz osmondan ularning ustiga yirik–yirik doʻl yogʻdirgan
edi. Ularning koʻplari doʻl ostida halok boʻldi. Isroil lashkarining qilichidan halok
boʻlganlardan koʻra, doʻl urib oʻlganlar koʻproq edi.

12 Egamiz Amor xalqlarini Isroil lashkarining qoʻliga bergan kuni Yoshua Egamizga
gapirib, butun Isroil xalqi oldida shunday dedi:

> “Ey quyosh, tek turgin Givon shahrida,
> Oymomo, sen esa Oyjavlon vodiysida*.”

13 Xalq oʻz dushmanlaridan qasos olmaguncha, quyosh ham, oy ham qimirlamay,
osmonda toʻxtab turaverdi. “Yoshur” kitobida* shu haqida yozilgan. Quyosh osmonning
oʻrtasida toʻxtab, kun boʻyi botmay turdi. 14 Oʻsha kuni Isroil xalqi uchun Egamizning Oʻzi
jang qildi. Undan oldin ham, keyin ham Egamiz insonning iltijosiga javob bergan bunday
kun boʻlmagan.

15 Shundan keyin Yoshua va butun lashkar Gilgaldagi qarorgohga qaytib ketishdi.

### Yoshua janubdagi beshta shohni oʻldiradi

16 Beshala shoh qochib, Makkedodagi gʻorga yashirinib olishgan edi. 17 Yoshuaga:
“Beshta shoh topildi, ular Makkedodagi gʻorning ichiga yashirinib olishgan ekan”, deb
aytishdi. 18 Yoshua shunday dedi: “Katta toshlar olib, gʻorning ogʻzini yopinglar. Shohlar
chiqib ketmasligi uchun u yerga qoʻriqchilar tayinlanglar, 19 lekin hammangiz ham oʻsha
yerda qolib ketmang. Dushman lashkarlarini quvib, ularga orqadan hujum qiling. Ularni
oʻz shaharlariga kirishlariga yoʻl qoʻymang, chunki Egangiz Xudo dushmanlarni sizning
qoʻlingizga bergan.” 20 Yoshua va butun Isroil lashkari dushmanlarning deyarli
hammasini qilichdan oʻtkazdi. Faqat bir–ikkitasigina oʻz mustahkam shaharlariga
qochib borib, tirik qoldi. 21 Butun Isroil lashkari Makkedodagi qarorgohga sogʻ–salomat
qaytib bordi. Shundan keyin oʻsha yerdagilardan hech kim Isroil xalqiga qarshi
gapirishga jur’at eta olmadi.

[22] Yoshua: “Gʻorning ogʻzini ochib, beshta shohni mening oldimga olib kelinglar”, deb
buyurdi. [23] Uning aytganini qilib, beshta shohni — Quddus, Xevron, Yarmut, Laxish va
Eglon shaharlarining shohlarini gʻordan olib chiqib, uning oldiga olib kelishdi. [24] Yoshua
butun Isroil jangchilarini yigʻib, oʻsha beshta shohni yerga yotqizdi. Jangchilarning
boshliqlariga esa shunday dedi: “Yaqinroq kelib, oyoqlaringizni shohlarning boʻyinlariga
qoʻyinglar.” Ular kelib, oyoqlarini shohlarning boʻyinlariga qoʻydilar. [25] Yoshua gapida
davom etdi: “Endi qoʻrqmang, vahimaga tushmang, faqatgina dadil va botir boʻlinglar.
Egamiz sizga qarshi chiqadigan hamma dushmanlarni shu koʻyga soladi.” [26] Shundan
keyin Yoshua shohlarni oʻldirib, ularning jasadlarini tik oʻrnatilgan beshta xodaning
uchiga qoqtirdi. Jasadlar kechgacha xodalarda osilib turdi. [27] Quyosh botganda,
Yoshuaning buyrugʻiga koʻra, shohlarning jasadlarini xodalardan tushirib, ilgari oʻsha
shohlar yashiringan gʻorning ichiga tashladilar. Gʻorning ogʻzini esa katta–katta toshlar
bilan yopib qoʻydilar. Oʻsha toshlar bugungacha oʻsha yerdadir.

### Yoshua janubdagi shaharlarni vayron qiladi

[28] Yoshua oʻsha kuni Makkedo shahrini* bosib oldi, uning aholisini shohi bilan birga
qilichdan oʻtkazdi. Shahardagi har bir kishini yoʻq qildi, u yerda birorta ham tirik jon
qolmadi. Yerixoning shohini nima qilgan boʻlsa, Makkedoning shohini ham shunday
qildi.

[29] Keyin Yoshua butun Isroil lashkari bilan Makkedodan Libna shahriga borib,
Libnaga hujum qildi. [30] Egamiz Libna va uning shohini ham Isroil lashkarining qoʻliga
berdi. Ular butun shahar aholisini qilichdan oʻtkazib, birorta ham tirik jon
qoldirmadilar. Yerixo shohini nima qilishgan boʻlsa, Libna shohini ham shunday qilishdi.

[31] Yoshua va barcha Isroil jangchilari Libnadan Laxish shahriga bordilar. Shaharni
qurshovga olib, hujum qilishdi. [32] Egamiz Laxishni Isroil lashkarining qoʻliga berdi. Ular
ikkinchi kuni shaharni bosib olishdi. Xuddi Libnadagiday bu shaharning ham butun
aholisini qilichdan oʻtkazishdi.

[33] Gezer shahrining shohi Xoʻrom Laxish shahriga yordamga kelgan edi, Yoshua
Xoʻromni va uning butun qoʻshinini birorta ham tirik jon qoldirmay yoʻq qildi.

[34] Isroil lashkari Yoshua bilan Laxishdan chiqib Eglon shahriga bordi. Uni ham
qurshovga olib, hujum qildi. [35] Xuddi Laxishdagiday Eglonni ham bir kun ichida bosib
olib, uning barcha aholisini yoʻq qildi.

[36] Bundan keyin Yoshua bilan Isroil lashkari Eglondan Xevron shahriga borishdi.
Oʻsha shaharga hujum qilishdi. [37] Xevronni qoʻlga olib, uning shohini, butun aholisini,
hatto atrofidagi qishloqlarning aholisini ham butunlay yoʻq qildilar. Xuddi Eglondagiday
bitta ham tirik jon qoldirishmadi.

[38] Keyin Yoshua butun Isroil lashkari bilan Davir shahriga borib, unga hujum qildi.
[39] Shaharni qoʻlga kiritib, uning shohi, butun aholisi va hatto atrofidagi qishloqlarning
aholisini ham butunlay yoʻq qildi. Xevron, Libna shaharlari va ularning shohlariga nima
qilgan boʻlsa, Davir va uning shohini ham xuddi shunday qilib, shaharda birorta ham
tirik jonzot qoldirmadi.

[40] Yoshua butun yurtni — qirlarniyu Nagav choʻlini*, gʻarbdagi qir etaklarini,
sharqdagi qir yon bagʻirlarini bosib oldi va u yerlarning shohlarini magʻlub qildi. Isroil
xalqining Xudosi — Egamiz buyurganday, Yoshua hech kimni tirik qoldirmadi, hammani
qirib tashladi. [41] Yoshua Kadesh–Barnadan Gʻazogacha boʻlgan shaharlarni, butun

Go‘shen yerlarini*, shimoldagi Givongacha bo‘lgan yerlarni bosib oldi. 42 Yoshua bu
shohlar va ularning yerlarini bir yurishdayoq bosib oldi, chunki Isroil xalqining Xudosi
— Egamiz O‘z xalqi uchun jang qildi. 43 Keyin Yoshua Isroil lashkari bilan birga
Gilgaldagi qarorgohga qaytib bordi.

# 11–BOB

### Isroil xalqi shimoldagi shohlarni mag‘lub qiladi

1 Xazor shahrining* shohi Yobin Yoshuaning g‘alabalari haqida eshitdi. U quyidagi
shohlarga shoshilinch xabar yubordi: Madon shohi Yo‘vovga, Shimron shohiga, Axshof
shohiga, 2 shimoldagi qirlarning shohlariga, Jalila ko‘lining* janubidagi Iordan
vodiysining* shohlariga, g‘arbdagi qir etaklari va Nafo‘t–Do‘r shohlariga, 3 sharq va
g‘arbdagi Kan’on xalqlarining shohlariga, Amor, Xet, Pariz xalqlarining shohlariga,
qirlardagi Yobus shohlariga, Mispax yeridagi* Xermon tog‘ining etagida yashaydigan Xiv
xalqiga. 4 Ular butun lashkarlari, juda ko‘p otlariyu jang aravalarini to‘plab, Isroil xalqiga
qarshi jang qilish uchun yig‘ilishdi. Ularning jangchilari dengiz qirg‘og‘idagi qumday
son–sanoqsiz edi. 5 Isroil xalqi bilan jang qilishga mana shu shohlarning hammasi
lashkarlarini birlashtirishdi. Ular Mirom* suvlari oldida qarorgoh qurdilar.

6 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Ulardan qo‘rqmagin! Men O‘zim ularni Isroil
xalqining qo‘liga beraman, ertaga shu paytda ularning hammasi o‘lgan bo‘ladi. Ularning
otlarini mayib qilinglar, jang aravalarini yondiringlar.” 7 Yoshua o‘zining butun lashkari
bilan Miromga borib, dushman qo‘shinlari ustiga to‘satdan hujum qildi. 8 Egamiz Isroil
lashkariga dushmanlari ustidan g‘alaba berdi. Isroil lashkari dushmanlarini shimol
tomonda Buyuk Sidon va Misrafo‘t–Mayimgacha, sharq tomonda esa Mispax
vodiysigacha* quvib borib, ularning hammasini halok qildi. Dushmanlarning birortasi
ham tirik qolmadi. 9 Yoshua Egamiz buyurganday ularning otlarini mayib qildi, jang
aravalarini yondirib tashladi.

10 O‘shandan keyin Yoshua o‘z lashkari bilan orqaga qaytib, Xazor shahriga bordi.
Uni qo‘lga kiritib, shohini halok qildi. U paytda Xazor o‘sha shohliklar orasida eng
qudratlisi edi. 11 Isroil lashkari shahar aholisining hammasini butunlay yo‘q qildi. U
yerda birorta ham tirik jon qolmadi. Shaharni esa yondirib tashlashdi. 12 Yoshua bilan
Isroil lashkari o‘sha shaharlarning hammasini bosib olib, ularning shohlariyu barcha
aholisini qilichdan o‘tkazdi. Egamizning quli Muso buyurganday, ularni butunlay vayron
qildi. 13 Isroil lashkari tepaliklarda* qurilgan shaharlardan faqatgina Xazor shahrini
yondirib tashladi. 14 Isroil lashkari shaharlardagi mol–mulklarni va barcha chorvani
o‘zlariga o‘lja qilib oldilar. Ammo shaharlarning barcha aholisini qilichdan o‘tkazdilar. U
yerda birorta ham tirik jon qolmadi. 15 Egamiz O‘z quli Musoga bergan amrlarni Muso
Yoshuaga yetkazgan edi. Yoshua Muso aytganday qilib, barcha amrlarni bitta qoldirmay
bajardi.

### Yoshua qo‘lga kiritgan yerlar

16 Shunday qilib, Yoshua butun yurtni — janubiy qirlaru o‘sha qirlarning etaklarini,
butun Nagav cho‘lini*, butun Go‘shen yerlarini*, Iordan vodiysini, shimoliy qirlar va
o‘sha qirlarning etaklarini bosib oldi. 17 Isroil xalqi bosib olgan yerning janubiy
chegarasi Seir* yonidagi Xalak tog‘i edi, shimoldagi chegarasi esa Xermon tog‘ining
etagida joylashgan Lubnon vodiysidagi Baal–Gad shahri edi. Yoshua o‘sha yerlarning

shohlarini magʻlub qilib, hammasini halok qildi. [18] Bu shohlarni magʻlub qilguncha,
Yoshua uzoq vaqt ular bilan urush qilgan edi. [19] Givondagi Xiv xalqidan tashqari* hech
bir shahar aholisi Isroil xalqi bilan sulh tuzmagan edi. Ularning hammasi jangda magʻlub
boʻlishdi. [20] Egamiz oʻsha xalqlarni oʻjaru takabbur qilib qoʻygani uchun, ular Isroil
xalqiga qarshi jang qilaverdilar. Egamiz Musoga buyurganday, Isroil lashkari ularni
butunlay yoʻq qilib, shafqatsizlarcha oʻldirishlari uchun shunday qilgan edi.
[21] Oʻsha paytda Yoshua qirlarda yashagan Onoq avlodini* yoʻq qilib tashladi. Ular
Xevron, Davir, Onov shaharlarida, butun janubiy va shimoliy qirlarda yashardilar.
Yoshua ularni oʻldirib, shaharlarini vayron qildi. [22] Isroil xalqining yurtida Onoq
avlodidan hech kim qolmadi, faqatgina Gʻazo, Gat va Ashdod shaharlarida* bir nechtasi
qoldi. [23] Shunday qilib, Musoga Egamiz aytganday, Yoshua butun yurtni qoʻlga kiritdi.
Yoshua bu yerlarni Isroil xalqining qabilalariga mulk qilib berdi. Endi yurtda tinchlik
barqaror boʻldi.

## 12–BOB

### Iordan daryosining sharqida Muso magʻlub qilgan shohlar

[1] Muso boshchiligida Isroil xalqi Iordan daryosining sharqida boʻlgan shohlarni
magʻlub qilib, ularning yerlarini egallab olgan edi. Bu shohlar janubdagi Arnon
soyligidan shimoldagi Xermon togʻigacha boʻlgan yerlarda hukmronlik qilgan edi.
Ularning yerlari Iordan vodiysining* sharqidagi barcha yerlarni oʻz ichiga olar edi.
[2] Isroil xalqi magʻlub qilgan shohlardan biri Amor xalqining shohi Sixoʻn* edi. U
Xashbon shahrida yashagan edi. Uning shohligi Arnon soyligining chetida joylashgan
Aror shahrini va oʻsha soylikning oʻrtasidan to Yavoq daryosigacha choʻzilgan joylarni,
yaʼni Giladning yarmini oʻz ichiga olar edi. Yavoq daryosi Ommon xalqi yerining
chegarasi edi. [3] Sixoʻn Iordan vodiysining sharq tomonida ham hukmronlik qilgan edi.
Bu hudud shimol tomonda Jalila koʻlining* gʻarbiy qirgʻoqlarigacha, janub tomonda Oʻlik
dengizgacha*, Bayt–Yashimoʻtdan Fisgax togʻ tizmasining yon bagʻirlarigacha boʻlgan
joylarni oʻz ichiga olar edi.
[4] Magʻlub boʻlgan Bashan shohi Oʻg* oʻz shaharlari Ashtaroʻt va Edreyda yashardi. U
Rafa xalqining* omon qolganlaridan biri edi. [5] Uning shohligi shimoldagi Xermon
togʻigacha, sharqdagi Salko shahrigacha choʻzilib, gʻarbdagi Gashur va Maxo
shohliklarining chegaralarigacha yetib borgan Bashan oʻlkasini ham oʻz ichiga olgan edi.
Bu shohlik yana Giladning shimoliy yarmini ham oʻz ichiga olib, Xashbon shohi Sixoʻn
hududi chegarasigacha yetib borardi. [6] Egamizning quli Muso va Isroil xalqi mana shu
ikki shohni magʻlub qilib, ularning yerlarini egallab olishgan edi. Muso shu yerlarni
Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmiga mulk qilib bergan edi.

### Iordan daryosining gʻarbida Yoshua magʻlub qilgan shohlar

[7] Iordanning gʻarbida — shimoldagi Lubnon vodiysida joylashgan Baal–Gaddan
tortib, janubdagi Seir* yonida joylashgan Xalak togʻigacha boʻlgan joylarda yashagan
shohlarni Isroil xalqi Yoshua boshchiligida magʻlub qildi. Oʻsha shohlarning yerlarini
Yoshua Isroil qabilalariga mulk qilib boʻlib berdi. [8] Qirlarni, gʻarbdagi qir etaklarini,
Iordan vodiysini, uning gʻarbidagi qir yon bagʻirlarini, Yahudo adirlaridagi va Nagav
choʻlidagi* yerlarni boʻlib berdi. Bu yerlarda Xet, Amor, Kanʼon, Pariz, Xiv va Yobus
xalqlari yashashardi. Isroil xalqi magʻlub qilgan shohlar quyidagilardir:

9 Yerixo shohi,
Baytilning yonidagi Ay shohi,
10 Quddus shohi,
Xevron shohi,
11 Yarmut shohi,
Laxish shohi,
12 Eglon shohi,
Gezer shohi,
13 Davir shohi,
Geder shohi,
14 Xoʻrmax shohi,
Arod shohi,
15 Libna shohi,
Adullam shohi,
16 Makkedo shohi,
Baytil shohi,
17 Tappux shohi,
Xafer shohi,
18 Ofoq shohi,
Sharon shohi,
19 Madon shohi,
Xazor shohi,
20 Shimron–Maron shohi,
Axshof shohi,
21 Tanax shohi,
Magidoʻ shohi,
22 Kedesh shohi,
Karmildagi Yoxnayom shohi,
23 Nafoʻt–Doʻrdagi* Doʻr shohi,
Gilgaldagi* Goʻyim shohi,
24 Tirza shohi.

Isroil xalqi hammasi boʻlib oʻttiz bitta shohni magʻlub qildi.

# 13–BOB

### Isroil xalqi hali bosib olmagan yerlar

1 Yillar oʻtib, Yoshua ancha keksayib qolgan paytda, Egamiz unga shunday dedi: “Sen
qariding, yoshing ham oʻtib qoldi, lekin Men sizlarga bergan yurtning koʻp joylari hali
bosib olinmagan. 2 Isroil xalqi hali quyidagi yerlarni egallamagan: butun Filist va Geshir
xalqining yerlari, 3 yaʼni Misrning sharqiy chegarasidagi Shixor irmogʻidan* shimoldagi
Exron chegaralarigacha boʻlgan yerlar. Hozir bu yerlar Kanʼon xalqiga tegishli. U
yerlarda Filist xalqining beshta hukmdori yashaydi. Ular quyidagi shaharlarda
hukmronlik qiladi: Gʻazo, Ashdod, Ashqalon, Gat va Exron. Janubdagi Avim xalqining*

yerlari ham hali bosib olinmagan. 4 Shimolda esa Isroil xalqi hali Kan’on xalqining
barcha yerlarini bosib olmagan. Bu yerlar Sidon xalqiga tegishli bo‘lgan Merax shahrini
o‘z ichiga olib, shimol tomonga, Amor xalqi yerlarining chegarasidagi Ofoq* degan
joygacha cho‘ziladi. 5 Isroil xalqi yana Gabolliklarning* yerlarini, Lubnon tog‘li
yerlarining sharq tomonini — Xermon tog‘ining etagidagi Baal–Gaddan Levo–
Xomatgacha* bo‘lgan joylarni qo‘lga kiritmagan. 6 Ular Lubnondan Misrafo‘t–
Mayimgacha bo‘lgan qirlarning aholisini — barcha Sidonliklarni ham hali mag‘lub
qilmagan. Men O‘zim mana shu xalqlarni bu yurtdan, Isroil xalqining oldidan
haydayman. Men senga buyurganimday, mana shu yerlarni albatta Isroil xalqiga mulk
qilib bergin. 7 Xullas, mana shu yerlarni qolgan to‘qqizta qabilaga va Manashe
qabilasining yarmiga* mulk qilib bo‘lib bergin.”

## Iordan daryosining sharqidagi yerlar

8 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining boshqa yarmi Iordan daryosining
sharqida o‘z ulushlarini olib bo‘lgan edilar. Ularga bu yerlarni Egamizning quli Muso
bergan edi. 9 Ularning hududi janubdagi Arnon soyligining chetida joylashgan Aror
shahridan tortib, soylikdagi* shahargacha cho‘zilib, Midavodan Dibongacha bo‘lgan
butun yassi tepalikni o‘z ichiga oladi. 10 Bu hudud Xashbon shahrida hukmronlik qilgan
Amor xalqining shohi Sixo‘n qo‘li ostida bo‘lgan hamma shaharlarni, Ommon xalqining
chegarasigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olardi. 11-12 Bulardan tashqari, Gashur va
Maxo xalqlarining yerlari, shuningdek, shoh O‘gning butun shohligi, chunonchi, Gilad
o‘lkasi, shimoldagi butun Xermon tog‘i va sharqdagi Salkogacha bo‘lgan butun Bashan
o‘sha hududga kirar edi. Shoh O‘g Rafa xalqining* eng oxirgi avlodi bo‘lib, Bashan
o‘lkasining Ashtaro‘t va Edrey shaharlarida hukmronlik qilgan edi. Muso o‘sha yerlarni
bosib olib, xalqlarini haydab chiqargan edi. 13 Lekin Isroil xalqi Gashur va Maxo
xalqlarini haydab chiqarmadi, ular bugungacha Isroil xalqi orasida yashaydilar.

14 Faqatgina Levi qabilasiga Muso ulush qilib yer bermadi. Egamiz aytganday,
qurbongohda Isroil xalqining Xudosi — Egamizga atab kuydiriladigan qurbonliklar Levi
qabilasining ulushidir*.

## Ruben qabilasining hududi

15 Muso Ruben qabilasiga urug‘lari bo‘yicha ulush bergan edi. 16 Ularning hududi
janubdagi Arnon soyligining chetida joylashgan Aror shahridan tortib, soylikdagi
shahargacha cho‘zilib, Midavo atrofidagi butun yassi tepalikni o‘z ichiga olardi. 17 Mana
shu hudud Xashbon shahrini va yassi tepalikda joylashgan quyidagi hamma shaharlarni
o‘z ichiga olar edi: Dibon, Bomo‘t–Baal va Bayt–Baal–Miyon, 18 Yaxaz, Kadamo‘t, Mifat,
19 Xiratayim, Sivmo va Iordan vodiysida joylashgan qirning ustidagi Zaret–Xashaxar,
20 Bayt–Piyor, Fisgax tog‘ tizmasining yon bag‘irlari, Bayt–Yashimo‘t shaharlari. 21 Ruben
qabilasining yerlari yassi tepalik ustidagi barcha shaharlar, Xashbonda hukmronlik
qilgan Amor xalqining shohi Sixo‘nning butun shohligini o‘z ichiga olardi. Muso Sixo‘nni
va u bilan ittifoq tuzgan Midiyon hukmdorlarini mag‘lub qilgandi. Ularning ismlari Evi,
Rahem, Zur, Xur va Raba edi. 22 Isroil xalqi yana Bavo‘r o‘g‘li Balomni* ham qilichdan
o‘tkazgan edi. U folbinlik bilan shug‘ullanar edi. 23 Ruben qabilasi hududining g‘arbiy
chegarasi Iordan daryosi va uning qirg‘oqlari edi. Mana shu yerlar Ruben qabilasiga
mulk qilib berilgan edi.

### Gad qabilasining hududi

[24] Muso Gad qabilasiga ham urugʻlari boʻyicha ulush berdi. [25] Yazir shahri, Gilad
oʻlkasidagi hamma shaharlar, Rabba shahrining* sharqidagi Aror shahrigacha* boʻlgan
Ommonlar yerining yarmi ularning hududiga kirar edi. [26] Ularning yeri yana janubdagi
Xashbon shahridan shimol tomondagi Ramat–Mispi va Batonim shaharlarigacha,
shuningdek, shimoldagi Moxanayimdan Debirgacha choʻzilgan edi. [27] Gad qabilasining
yeri Iordan vodiysida Bayt–Xaram, Bayt–Nimro, Suxot, Zofun shaharlarini hamda
Xashbon hukmdori boʻlgan Sixoʻn shohining qolgan shohligini ham oʻz ichiga olar edi. Bu
hududning gʻarbiy chegarasi Iordan daryosi boʻlib, shimoldagi Jalila koʻligacha*
choʻzilgan edi. [28] Mana shu hududdagi shaharlar va atroflaridagi qishloqlar Gad
qabilasiga mulk qilib berilgan edi.

### Iordan sharqidagi Manashe qabilasining yarmiga berilgan yerlar

[29] Muso Manashe qabilasining yarmiga ham urugʻlari boʻyicha ulush bergan edi.
[30] Ularning hududi Moxanayim shahridan shimolga choʻzilib, butun Bashan oʻlkasini va
Yovir bosib olgan oltmishta shaharni oʻz ichiga olar edi. Bashan shohi Oʻg mana shu
joylarda hukmronlik qilgan edi. [31] Gilad oʻlkasining yarmi, Bashandagi Oʻg shohligining
poytaxt shaharlari Ashtaroʻt va Edrey ham ularning hududiga kirar edi. Bu yerlar
Manashe oʻgʻli Moxirdan kelib chiqqan naslning yarmiga berilgan edi.

[32] Iordanning sharqida, Moʻab tekisligida, Yerixoning roʻparasida Muso boʻlib bergan
ulushlar mana shulardir. [33] Lekin Levi qabilasiga Muso ulush qilib yer bermagan edi.
Isroil xalqining Xudosi — Egamiz ularga: “Men Oʻzim sizlarning ulushingiz boʻlaman”,
deb va’da bergan edi*.

## 14–BOB

### Iordan daryosining gʻarbidagi yerlar taqsimlanadi

[1] Iordan daryosining gʻarbidagi Kan’on yurti yerlaridan Isroil xalqining qolgan
qabilalari mulk oldilar. Ruhoniy Elazar*, Nun oʻgʻli Yoshua va Isroil qabilalarining
boshliqlari bu yerlarni qabilalarga boʻlib berishdi. [2] Iordan daryosining gʻarbida mana
shu toʻqqiz qabila va bitta qabila yarmining ulushlari, Musoga Egamiz buyurganday,
qur’a tashlab belgilandi*. [3-4] Iordanning sharqida esa Muso ikki qabilaga va bitta
qabilaning yarmiga ulush berib boʻlgandi. Yusufning ikkala oʻgʻli — Manashe va
Efrayimdan ikki qabila kelib chiqqan edi. Ammo Isroil qabilalari orasida Levi qabilasi
hech qanday ulush olmadi*. Ularga faqat oʻzlari yashashi uchun shaharlar va qoʻy–
mollarini boqish uchun shaharlar atrofidagi yaylovlar berildi. [5] Shunday qilib, Egamiz
Musoga buyurganday, Isroil xalqi yerlarni boʻlib oldilar.

### Xevron Xolibga beriladi

[6] Bir kuni Yahudo qabilasidan bir necha kishi Yoshuaning oldiga keldi. Isroil
xalqining hammasi hali ham Gilgaldagi qarorgohda edi. Xanaz urugʻidan boʻlgan Yafunax
oʻgʻli Xolib* oʻsha kishilar orasida edi. U Yoshuaga shunday dedi:

— Kadesh–Barna shahrida boʻlganimizda, Xudoning odami Muso siz va men
haqimizda nima deganini bilasiz. Muso Egamiz nomidan gapirgan edi. [7] Egamizning quli
Muso meni Kadesh–Barnadan mana shu yerlarni tekshirib kelish uchun yuborganda
qirq yoshda edim. Men qaytib kelib, unga bor haqiqatni aytgan edim. [8] Men bilan borib

kelganlar xalqimizni vahimaga solgan boʻlsa ham, men Egam Xudoga sodiq qoldim.
9 Oʻsha kuni Muso qasam ichib menga shunday degan edi*: “Kan’on yurtida qadaming
yetgan yerlar senga va avlodingga abadiy mulk qilib beriladi, chunki sen Egam Xudoga
sodiq qolding.” 10 Mana koʻrib turganingizdek, Egamiz Musoga shunday deb gapirganiga
qirq besh yil boʻldi. Oʻsha paytda Isroil xalqi sahroda yurgan edi. Egam Oʻzi aytganday
oʻshandan beri jonimni saqlab kelyapti. Mana hozir sakson besh yoshdaman. 11 Muso
meni yuborgan kunda qanday baquvvat boʻlgan boʻlsam, hozir ham shundayman.
Haligacha jangga ham, qolgan barcha ishlarga ham quvvatim yetadi. 12 Endi Egamiz
oʻsha kuni va’da qilgan qirlarni* menga bering. Oʻsha kuni aygʻoqchilarning: “Onoq
avlodi* u yerda oʻzlarining katta, mustahkam shaharlarida yasharkan” degan gaplarini
oʻzingiz eshitdingiz. Ammo Egamiz men bilan birga boʻlsa, Egamizning Oʻzi aytganday,
men ularni bu yurtdan haydab chiqaraman.
13 Shundan keyin Yoshua Xolibni duo qilib, Xevron shahrini* unga mulk qilib berdi.
14 Shunday qilib, Xolib Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga sodiq qolgani uchun
Xevron shahri uning va avlodining mulki boʻlib qoldi. 15 Xevronning eski nomi Xirat–
Arba* edi. Arba Onoq avlodi orasida eng mashhur kishi boʻlgan edi.

Endi yurtda tinchlik barqaror boʻldi.

# 15–BOB

## Yahudo qabilasining hududi

1 Yahudo qabilasining urugʻlariga tushgan ulush yurtning janub tomonida edi.
Ularning janubdagi yerlari Edom yurtining chegarasi boʻlgan Zin choʻligacha yetdi.
2 Ularning janubiy chegarasi Oʻlik dengizning* janubiy qirgʻogʻidan boshlanadi.
3 Chegara Chayonlar dovonidan* oʻtib, janub tomonga, Zin choʻli tomon choʻziladi.
Kadesh–Barna shahrining janub tomonidan oʻtib, Xazron shahrigacha boradi. Xazrondan
oʻtgandan keyin Adar shahrigacha borib, Karxa shahri tomonga buriladi. 4 Bu chegara
Ozmon shahrigacha borib, Misr chegarasidagi irmoqdan* ham oʻtadi–da, Oʻrta yer
dengizining yonida tugaydi. Yahudo qabilasining janubiy chegarasi ana shunday boʻladi.
5 Ularning sharqiy chegarasi Oʻlik dengizdir. Bu chegara shimoldagi Iordan daryosi
Oʻlik dengizga quyiladigan joygacha choʻziladi. Mana shu joydan shimoliy chegara
boshlanadi.
6 Shimoliy chegara Oʻlik dengizning gʻarbidagi Bayt–Xoʻglaxgacha choʻzilib, Bayt–
Arabaning shimolidan oʻtadi–da, Ruben oʻgʻli Boʻxanning nomi bilan atalgan tosh turgan
joygacha boradi. 7 Keyin chegara Oxor soyligidan Davirgacha* borib, shimolga — Gilgal*
tomonga buriladi. Gilgal soylikning janubida boʻlgan Adum dovonining roʻparasida edi.
Chegara En–Shamash bulogʻidan oʻtib, En–Roʻgʻolga boradi. 8 Keyin Xinnum soyligining
tepasidan kesib oʻtib, Yobus xalqiga qarashli boʻlgan tepalikning, ya’ni Quddusning
janubiy yon bagʻridan oʻtadi. Chegara u yerdan Xinnum soyligining gʻarbidagi qirning
tepasiga — Rafa vodiysining shimoliy chetigacha boradi. 9 Chegara togʻning tepasidan
Naftuva buloqlari tomon choʻzilib, Efroʻn togʻining shaharlarigacha boradi, keyin esa
Baalax tomonga buriladi. Bu shahar hozirgi paytda* Xirat–Yoʻrim deb ataladi.
10 Shundan keyin bu shimoliy chegara Baalaxning gʻarb tomonini aylanib oʻtib, Seir
togʻlarigacha* boradi. Keyin Yoʻrim togʻining shimoliy yon bagʻridan oʻtadi. Xisalon
shahri shu yerda joylashgan. U yerdan chegara Bayt–Shamash shahrigacha* boradi va

Timnax shahridan o‘tadi. [11] Keyin chegara Exron shahrining shimolidagi tepalikning yon
bag‘ridan o‘tib, Shikkaron shahri tomonga buriladi. Keyin Baalax tog‘ining yonidan o‘tib,
Yobnail shahriga boradi. Shimoliy chegara O‘rta yer dengizining oldida tugaydi.

[12] O‘rta yer dengizining* qirg‘og‘i g‘arbiy chegarani tashkil qiladi.

Mana shu chegaralar hududida Yahudo qabilasining urug‘lari yashaydi.

### Xevron va Davir shaharlarini Xolib mag‘lub qiladi

[13] Egamiz buyurganday, Yoshua Yafunax o‘g‘li Xolibga Yahudo qabilasining
hududidan ulush berdi. Bu ulush Xirat–Arba* shahri edi. Arba Onoq avlodining*
bobokaloni edi. Hozirgi paytda* Xirat–Arba shahri Xevron deb ataladi. [14] Xolib u yerdan
Onoq avlodini — Sheshay, Oximan va Talmay urug‘larini quvib chiqardi. [15] Yahudo
qabilasining odamlari u yerdan Davir shahriga* hujum qilish uchun yo‘lga tushishdi.
Davirning eski nomi Xirat–Safar edi. [16] Shunda Xolib: “Xirat–Safarga hujum qilib, qo‘lga
kiritgan kishiga qizim Axsani beraman”, — dedi. [17] O‘tniyol shaharni qo‘lga kiritdi, Xolib
esa unga qizi Axsani uzatdi. O‘tniyol Xolibning Xanaz ismli ukasining o‘g‘li edi. [18] To‘ydan
keyin qiz O‘tniyolga: “Keling, otamdan* bir dala so‘rab olaylik”, deb turib oldi. Xolib
eshakdan tushayotgan qiziga: “Ha, qizim, biron–bir istaging bormi?” — deb so‘radi.
[19] “Menga bir sovg‘a qilsangiz, — dedi Axsa. — Siz menga Nagav cho‘lidagi* yerni
berdingiz, endi suv buloqlarini ham hadya eting.” Shunday qilib, Xolib unga tepadagi va
pastdagi buloqlarni* berdi.

### Yahudo shaharlari

[20] Quyida aytib o‘tilgan yerlarni Yahudo qabilasi ulush qilib oldi. [21] Bu hududning eng
janubidagi — Edom yurti chegarasidagi shaharlarning nomlari quyidagicha edi: Kabzil,
Eder, Yog‘ur, [22] Xino, Dimona, Adad, [23] Kedesh, Xazor, Yitnon, [24] Zif, Talim, Bolo‘t,
[25] Xazor–Xadatto, Xariyo‘t–Xazron, ya’ni Xazor, [26] Emom, Shama, Mo‘lodax, [27] Xazor–
Gaddax, Xashmon, Bayt–Palat, [28] Xazor–Shuvol, Bersheba, Bizyo‘tayox, [29] Baalax, Iyim,
Ezam, [30] Elto‘lad, Xasil, Xo‘rmax, [31] Zixlax, Madmanno, Sansanno, [32] Laboyo‘t, Shilxim,
Oyin, Rimmon — hammasi bo‘lib yigirma to‘qqizta shahar va ularning atrofidagi
qishloqlar.

[33] Qir etaklarining shimolidagi shaharlarning nomi esa quyidagicha edi: Eshtoyo‘l,
Zorox, Ashnah, [34] Zono‘vax, En–Xannim, Tappux, Enom, [35] Yarmut, Adullam, So‘xu,
Ozikah, [36] Sharayim, Aditayim, Gadera (yoki Gaderatayim) — hammasi bo‘lib o‘n to‘rtta
shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.

[37] Qir etaklarining janubida quyidagi shaharlar bor edi: Zinon, Hadasha, Migdal–Gad,
[38] Dilan, Mispax, Yoxtal, [39] Laxish, Bozxat, Eglon, [40] Kabbo‘n, Laxmos, Xitlish, [41] Gadero‘t,
Bayt–Do‘g‘on, Namax, Makkedo — hammasi bo‘lib o‘n oltita shahar va ularning
atrofidagi qishloqlar.

[42] Qir etaklarining markaziy qismidagi shaharlar quyidagilar edi: Libna, Eter, Oshon,
[43] Yiftox, Ashnah, Naziv, [44] Keylax, Axsib, Morisho — hammasi bo‘lib to‘qqizta shahar va
ularning atrofidagi qishloqlar.

[45] Yahudo qabilasining hududi Exronning barcha shaharlari va ularning atrofidagi
qishloqlarni o‘z ichiga olar edi. [46] Chegara Exrondan g‘arbga, O‘rta yer dengizi tomon
cho‘zilib, Ashdodning yonida bo‘lgan barcha shaharlar va ularning atrofidagi
qishloqlarni o‘z ichiga olar edi. [47] Ularning hududi Ashdod va uning shaharlariyu
qishloqlarini, G‘azo va u yerdan Misr chegarasidagi irmoqqacha* bo‘lgan joylardagi

shaharlar va qishloqlarni, O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i bo‘yidagi shaharlarni o‘z ichiga
olar edi.
48 Yahudo qabilasi qirlarda quyidagi shaharlarni ulush qilib oldi: Shomir, Yatir, So‘xu,
49 Danno, Xirat–Sanno, ya’ni Davir, 50 Onov, Eshtamo‘va*, Onim, 51 Go‘shen, Xo‘lun va
Gilox — hammasi bo‘lib o‘n bitta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
52 Qirlardagi quyidagi shaharlar Yahudo qabilasining hududiga kirar edi: Arab,
Dumax, Ishan, 53 Yonum, Bayt–Tappux, Ofoqa, 54 Xumtax, Xirat–Arba, ya’ni Xevron va
Zior — hammasi bo‘lib to‘qqizta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
55 Yana qirlarda quyidagi shaharlar Yahudo qabilasining ulushi bo‘ldi: Moyun,
Karmil, Zif, Yutto, 56 Yizril, Yoxdayom, Zono‘vax, 57 Qayin, Givo va Timnax — hammasi
bo‘lib o‘nta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
58 Qirlardagi mana bu shaharlar ham o‘sha hududga kirardi: Xalxul, Bayt–Zur, Gado‘r,
59 Marot, Bayt–Ano‘t va Eltaxo‘n — hammasi bo‘lib oltita shahar va ularning atrofidagi
qishloqlar.
60 Xirat–Baal, ya’ni Xirat–Yo‘rim va Rabba — qirlardagi mana shu ikki shahar va
ularning atrofidagi qishloqlar ham Yahudo qabilasining ulushi bo‘ldi.
61 O‘lik dengiz bo‘yidagi adirlarda joylashgan quyidagi shaharlar ham Yahudo
qabilasiga tegishli bo‘ldi: Bayt–Araba, Middin, Saxoxo, 62 Nivshon, Tuz shahri va En–Gedi
— hammasi bo‘lib oltita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
63 Ammo Yahudo qabilasi Yobus xalqini Quddusdan haydab chiqara olmadi*.
Bugungacha* Yobus xalqi Yahudo xalqi bilan birga Quddusda yashaydi.

## 16–BOB

### Yusuf avlodining ulushi

1 Yusuf avlodlariga* berilgan ulushning janubiy chegarasi Yerixo shahrining yonidagi
Iordan daryosidan, Yerixo bulog‘ining sharqidagi joydan boshlanadi. Keyin chegara
Yerixoning oldidan o‘tib, shimoli–g‘arbdagi Yahudo adirlari orqali qirlardagi Baytil
shahrigacha cho‘ziladi. 2 Keyin Baytil, ya’ni Luzdan ham o‘tib*, Orux xalqiga tegishli
bo‘lgan Otro‘t–Adargacha* boradi. 3 Chegara u yerdan g‘arbdagi Yaflet avlodining
yerigacha cho‘zilib, Pastki Bayt–Xo‘rongacha boradi. Keyin chegara Gezer shahrigacha
borib, O‘rta yer dengizining oldida tugaydi.
4 Yusuf avlodlari bo‘lgan Manashe va Efrayim qabilalari mana shu yerlarni ulush
qilib oldilar.

*Efrayim qabilasiga berilgan yerlar*

5 Efrayim qabilasining urug‘lariga quyidagi yerlar berildi: bu yerlarning janubiy
chegarasi Otro‘t–Adarda boshlanadi–da, g‘arb tomonga, Tepadagi Bayt–Xo‘rongacha
cho‘zilib, 6-7 O‘rta yer dengizining oldida tugaydi. Sharqiy chegarasi Mixmatitdan janub
tomonga boradi, Tanat–Shilo‘, Yonox, Otaro‘t, Naro shaharlaridan o‘tib, Iordan
daryosining Yerixoga yaqin bo‘lgan joyida tugaydi. 8 Shimoliy chegarasi esa Tappuxdan
g‘arbga boradi. Keyin Kanax soyligi bo‘ylab cho‘zilib, O‘rta yer dengizida tugaydi. Mana
shu yerlarni Efrayim qabilasi ulush qilib oldi.
9 Efrayim qabilasiga yana Manashe hududida joylashgan bir nechta shaharlar va
ularning atrofidagi qishloqlar ham berildi. 10 Ammo Efrayim qabilasi Gezerda
yashayotgan Kan’on xalqini quvib chiqarmadi. Bu xalq bugungi kungacha* Efrayim

qabilasi orasida yashaydi, lekin ular qarol bo‘lib xizmat qilishga majbur qilinganlar.

## 17–BOB

*Iordan g‘arbidagi Manashe qabilasining yarmiga berilgan yerlar*

[1] Keyin Manashe qabilasiga ulush berildi. Manashe Yusufning to‘ng‘ichi edi. Moxir
Manashening to‘ng‘ichi bo‘lib, Giladning otasi edi. Moxir botir jangchi bo‘lgani uchun,
Muso unga Iordanning sharqidagi Gilad va Bashan o‘lkalarini bergan edi. [2] Iordanning
g‘arbida Manashe qabilasining qolganiga ulush berildi. Manashe o‘g‘illari Abuazar,
Xalek, Osriyol, Shakam, Xafer va Shamido urug‘larining hammasiga yerlar berildi.
[3] Manashening nabirasi Giladning Xafer degan o‘g‘li bor edi. Xaferning esa Zalofxod
degan o‘g‘li bor edi. Zalofxodning o‘g‘illari yo‘q, faqatgina qizlari bor edi. Qizlarining
ismlari Maxlo, Nuvah, Xo‘glax, Milxo va Tirza edi. [4] Shu ayollar ruhoniy Elazar*, Yoshua
va oqsoqollarning oldiga kelib, shunday deyishdi: “Egamizning O‘zi bizga ham,
amakilarimiz qatori, ulush berishni Musoga amr qilgan.”* Yoshua Egamizga itoat etib,
qizlarga ham amakilari qatori ulush berdi. [5] Natijada Iordanning sharqidagi Gilad va
Bashan o‘lkalaridan tashqari, Manashe qabilasi Iordanning g‘arbida yana o‘n bo‘lak yer
oldi. [6] Chunki Manashe avlodining ayollari ham erkaklar qatori ulush olishdi. Gilad
yerini esa Yoshua Manashe qabilasining qolganlariga taqsimlab berdi.
[7] Iordan daryosining g‘arbidagi Manashe qabilasi yerlarining shimoliy chegarasi
Osher qabilasi hududining chegarasi bilan tutashgan edi. Janubiy chegarasi esa Mixmatit
shahrigacha borib, Tappux bulog‘i* atrofida yashaydiganlarning yerlarigacha cho‘zilgan
edi. Mixmatit shahri Shakam shahrining sharqida edi. [8] Tappux shahri Manashe va
Efrayim qabilalarining chegarasida joylashgan edi. Tappuxning atrofidagi yerlar
Manashe qabilasiga tegishli bo‘lsa ham, shaharning o‘zi Efrayim qabilasiga tegishli edi.
[9] Manashe hududining janubiy chegarasi Tappux shahridan, Kanax soyligi bo‘ylab, O‘rta
yer dengizigacha cho‘ziladi. Kanax soyligining qirg‘og‘idagi bir nechta shahar Manashe
qabilasining hududida bo‘lishiga qaramay Efrayim qabilasiga tegishli edi. [10] O‘sha
soylikning janubidagi yerlar Efrayim qabilasiniki, shimolidagi yerlar esa Manashe
qabilasiniki edi. O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i Manashe hududining g‘arbiy chegarasi
edi. Bu hudud shimol tomonda Osher qabilasining hududigacha, sharq tomonda esa
Issaxor qabilasining hududigacha cho‘zilgan edi.
[11] Issaxor va Osher qabilalarining hududlarida joylashgan quyidagi shaharlar va
atrofidagi qishloqlar Manashe qabilasiga berilgan edi: Bayt–Shan, Yiblayom, Do‘r, ya’ni
Nafo‘t–Do‘r, En–Do‘r, Tanax va Magido‘. [12] Lekin Manashe qabilasi bu shaharlarni qo‘lga
kirita olmadi. Kan’on xalqlari o‘sha joylarda yashashda davom etaverdi. [13] Birmuncha
vaqt o‘tgandan keyin Isroil xalqi yanada kuchaydi va Kan’on xalqlarini qarol bo‘lib
xizmat qilishga majbur qildi. Ammo ularni yurtdan butunlay quvib chiqarmadi.

**Efrayim va Manashe qabilalari kattaroq ulushni so‘rab borishadi**

[14] Bir kun Yusuf avlodlari* kelib, Yoshuadan so‘rashdi:
— Egamiz bizni barakali qilib, juda ham ko‘paytirdi. Nima uchun bizga faqatgina bir
ulush yer berdingiz?
[15] Yoshua ularga shunday deb javob berdi:
— Agar Efrayim qirlari sizlarga kichiklik qilayotgan bo‘lsa, boringlar, Pariz va Rafa*
xalqlarining o‘rmonlaridagi daraxtlarni kesib, o‘zingizga joy tozalab olinglar.

[16] Ular shunday dedilar:
— Biz aytganingizday qilsak ham, baribir, u joy bizga torlik qiladi. Yizril vodiysiga borib ham, u yerda yashay olmaymiz. Nega desangiz, Bayt–Shan shahri va uning atrofidagi qishloqlarda hamda Yizril vodiysining boshqa joylarida yashaydigan Kan'on xalqi bizdan ancha kuchli, ularning temirdan yasalgan jang aravalari* bor.
[17] Yoshua Yusufning avlodlari boʻlgan Efrayim va Manashe qabilalariga shunday dedi:
— Sizlar juda koʻpchiliksizlar, kuchingiz ham koʻp. Nafaqat bir ulush yer,
[18] balki qirlar ham sizlarniki boʻladi. U yerlar oʻrmon boʻlsa ham, daraxtlarini kesib, tozalanglar. U joylar boshidan oxirigacha sizlarniki boʻladi. Kan'on xalqlarining temir jang aravalariyu katta kuchi boʻlishiga qaramay, sizlar ularni u yerdan haydab chiqarasizlar.

# 18–BOB

## Yoshua qolgan yerlarni taqsimlaydi

[1] Isroil xalqi yurtni bosib olgandan keyin, butun Isroil jamoasi Shiloʻ shahrida* yigʻildi. Ular oʻsha yerda Uchrashuv chodirini tikdilar.
[2] Isroil xalqining orasida hali ulush olmagan yettita qabila qolgan edi.
[3] Yoshua Isroil xalqiga shunday dedi: "Ota–bobolaringizning Xudosi — Egamiz sizlarga yurtni bergan, qachongacha u yurtga butunlay joylashishni orqaga surasizlar?!
[4] Har bir qabiladan uch kishini tanlanglar. Men ularni butun yurtni kezib chiqish uchun yuboraman. Ular oʻz qabilalarining ulushi boʻyicha, oʻsha yerni tasvirlab yozib kelishadi.
[5] Janubdagi Yahudo qabilasining hududi va shimoldagi Yusuf avlodlarining* hududlaridan tashqari, yurtning qolgan qismini yettiga boʻlasizlar.
[6] Keyin shularni yozib, mening oldimga olib kelinglar. Men Egamiz Xudo oldida sizlar uchun qur'a tashlayman*.
[7] Sizlarning orangizda Levi qabilasiga ulush bermayman. Egamizga ruhoniy boʻlib xizmat qilish ularning ulushidir. Gad, Ruben qabilalari va Manashe qabilasining yarmi Iordanning sharq tomonida oʻz ulushlarini olib boʻlganlar. Egamizning quli Muso oʻsha yerlarni ularga bergan."
[8] Shunday qilib, Yoshua yerning xaritasini tuzib kelishni buyurgan kishilar yoʻlga tushdilar. Ular ketmasdan oldin, Yoshua ularga shunday deb tayinlagan edi: "Butun yerni kezib, uning xaritasini tuzib kelganingizdan keyin, men Shiloʻda, Egamiz oldida sizlar uchun qur'a tashlayman."
[9] U kishilar borib, yerni yetti qismga boʻldilar. Butun yurtning xaritasini tuzib, shaharlarini roʻyxatga oldilar. Keyin Yoshuaning oldiga, Shiloʻdagi qarorgohga qaytib keldilar.
[10] Yoshua Shiloʻda, Egamiz oldida ular uchun qur'a tashlab, oʻsha yerlarni Isroil xalqiga boʻlib berdi. Qur'a boʻyicha har bir qabilaga bir ulushdan yer berdi.

## Benyamin qabilasining ulushi

[11] Qur'a tashlanganda, Benyamin qabilasiga Yahudo qabilasi va Yusuf avlodlari* hududlarining orasidagi yerlar ulush boʻlib tushdi.
[12] Benyamin hududining shimoliy chegarasi sharq tomonda Iordan daryosidan boshlanadi, keyin Yerixo qirining yon bagʻridan shimol tomonga boradi. Qirlar boʻylab gʻarb tomonga oʻtib, Bayt–Obun atrofidagi sahroga boradi.
[13] U yerdan chegara Luz, ya'ni Baytil tomonga borib, Luzning janubidagi qir boʻylab choʻziladi. Keyin chegara Otroʻt–Adar shahriga borib, u yerdan Pastki Bayt–Xoʻron shahrining janubidagi qirgacha boradi.

[14] U yerdan gʻarbiy chegara boshlanib, Bayt–Xoʻron qarshisidagi qirning gʻarb tomoni boʻylab janub tomonga choʻziladi va Xirat–Baal, yaʼni Xirat–Yoʻrim qishlogʻida tugaydi. Bu qishloq Yahudo qabilasiga tegishli. Gʻarbiy chegara mana shudir.

[15] Gʻarbda janubiy chegara Xirat–Yoʻrimning chetidan boshlanib, Naftuva
buloqlarigacha boradi. [16] Keyin chegara Rafa vodiysining shimolidagi togʻ etagiga boradi.
Xinnum soyligi mana shu yerdan boshlanadi. Chegara janub tomonga davom etib,
Xinnum soyligi boʻylab Yobusning* janubidagi qir yon bagʻriga boradi. U yerdan esa En–
Roʻgʻol tomonga qarab davom etadi. [17] Chegara u yerdan shimolga, En–Shamash
tomonga buriladi va Adum dovonining qarshisidagi Geliloʻtga boradi. Keyin Ruben oʻgʻli
Boʻxan nomi bilan atalgan toshning yonidan oʻtadi. [18] Keyin Iordan vodiysining*
yonidagi qir yon bagʻrining shimol tomonidan oʻtib, vodiyni ham kesib oʻtadi. [19] U
yerdan chegara Bayt–Xoʻglax qirining shimol tomoniga oʻtib, Iordan daryosi Oʻlik
dengizga* quyiladigan joyda tugaydi. Bu Benyamin qabilasi hududining janubiy
chegarasidir.

[20] U yerning sharqiy chegarasi Iordan daryosidir.

Benyamin qabilasiga ulush qilib berilgan yerlarning chegaralari mana shular edi.

[21] Quyidagi shaharlar Benyamin qabilasiga berildi: Yerixo, Bayt–Xoʻglax, Emix–Qaziz,
[22] Bayt–Araba, Zamorayim, Baytil, [23] Avim, Poro, Oʻfra, [24] Xafar–Ommonax, Ofnax va
Gebo — hammasi boʻlib oʻn ikkita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar. [25] Quyidagi
shaharlar ham Benyamin qabilasiga berildi: Givon, Rama, Baroʻt, [26] Mispax, Xafira,
Moʻzox, [27] Rahem, Yirpayel, Taralo, [28] Zila, Elef, Yobus, yaʼni Quddus, Givo va Xirat–
Yoʻrim* — hammasi boʻlib oʻn toʻrtta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.

Yoshua mana shu yerlarni Benyamin qabilasiga ulush qilib berdi.

# 19–BOB

## Shimoʻn qabilasining ulushi

[1] Qurʼa boʻyicha* ikkinchi boʻlib Shimoʻn qabilasi ulush oldi. Shimoʻn qabilasiga ulush
qilib berilgan yerlarning atrofi Yahudo qabilasining hududi bilan oʻralgan edi. [2] Shimoʻn
qabilasiga: Bersheba (yaʼni Sheba)*, Moʻlodax, [3] Xazor–Shuvol, Bala, Ezam, [4] Eltoʻlad,
Batul, Xoʻrmax, [5] Zixlax, Bayt–Markobot, Xazor–Susa, [6] Bayt–Laboyoʻt va Shoruxan —
hammasi boʻlib oʻn uchta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar berildi.

[7] Quyidagi shaharlar ham Shimoʻn qabilasiga tegishli edi: Oyin, Rimmon, Eter va
Oshon — toʻrtta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar. [8] Shimoʻn qabilasining hududi
yana janubdagi Baalat–Berni, yaʼni Nagav choʻlidagi* Ramagacha boʻlgan yerlardagi
barcha shaharlarni va ularning atrofidagi qishloqlarni oʻz ichiga olar edi. [9] Yoshua
Yahudo qabilasiga bergan ulush ular uchun keragidan ham ortiq edi. Shuning uchun
ularning hududidan bir boʻlagini olib, Shimoʻn qabilasiga ulush qilib berdi.

## Zabulun qabilasining ulushi

[10] Qurʼa boʻyicha uchinchi boʻlib Zabulun qabilasi ulush oldi. Ularga tekkan
hududning chegarasi Sorid shahridan boshlanib, [11] gʻarb tomonga boradi va Maralo
shahridan oʻtadi. Keyin Dabbeshet shahrining yonidan oʻtib, Yoxnayom shahrining
sharqidagi soylikkacha yetadi. [12] Sorid shahrining sharq tomonidan chegara Xisloʻt–
Tovur shahrining chegarasigacha choʻziladi. Keyin Dovarat shahrigacha borib, Yofiya
shahrigacha davom etadi. [13] Chegara yana sharq tomonga davom etib, Gat–Xafer va Et–

Kozin shaharlarigacha boradi. Keyin chegara Rimmon shahrigacha borib, u yerdan
Niyox shahri tomon buriladi*. 14 Hududning shimoliy chegarasi Xannaton shahridan
oʻtib, Yiftox–El soyligida tugaydi. 15 Zabulun qabilasining hududida hammasi boʻlib oʻn
ikkita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar bor edi. Kattot, Nahalil, Shimron, Yidalo
va Baytlahm* oʻsha shaharlardan baʼzilari edi.
16 Mana shu shaharlar va ularning atrofidagi qishloqlarning hammasini Zabulun
qabilasi ulush qilib oldi.

### Issaxor qabilasining ulushi

17 Qurʼa boʻyicha toʻrtinchi boʻlib Issaxor qabilasi ulush oldi. 18 Bu qabilaga ulush qilib
berilgan yerlarda quyidagi shaharlar bor edi: Yizril, Xasulloʻt, Shunam, 19 Xaforayim,
Shiyon, Anaxarat, 20 Rabbit, Xishion, Avaz, 21 Remot, En–Xannim, En–Xaddax, Bayt–
Pazez. 22 Shimoldagi bu hududning chegarasi Tovur togʻidan boshlanib, Iordan
daryosida tugaydi. Tovur*, Shaxazimo va Bayt–Shamash* shaharlari ham mana shu
hududga kirar edi — hammasi boʻlib oʻn oltita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
23 Mana shu shaharlar va ularning atrofidagi qishloqlarni Issaxor qabilasi ulush qilib
oldi.

### Osher qabilasining ulushi

24 Qurʼa boʻyicha beshinchi boʻlib Osher qabilasi ulush oldi. 25 Ularning hududi
quyidagi shaharlarni oʻz ichiga olar edi: Xalkat, Xaliy, Beten, Axshof, 26 Alammalek, Emod
va Mishol. Hududning janubiy chegarasi Oʻrta yer dengizidan boshlanib, Karmil
qirlarining etaklaridagi Shixor–Libnat soyligi boʻylab choʻziladi. 27 U yerdan chegara
sharq tomonga burilib, Bayt–Doʻgʻon shahrigacha boradi va Yiftox–El vodiysidagi
Zabulun qabilasi hududining chegarasi bilan tutashadi. Keyin sharqiy chegara shimol
tomonga burilib, Bayt–Emix va Nabiyol shahrigacha boradi. Hududning chegarasi Kavul,
28 Abdoʻn*, Rexob, Xammon, Kanax shaharlaridan oʻtib, Buyuk Sidon shahrigacha yetadi
29 va bu yerdan gʻarbga buriladi. Shu yerdan shimoliy chegara boshlanib, Ramaga*
boradi–da, mustahkam Tir shahrigacha yetadi. Keyin chegara Xoʻsax shahri tomon
burilib, Oʻrta yer dengizining oldida tugaydi. Osher qabilasining hududi quyidagi
shaharlarni ham oʻz ichiga olar edi: Maxalav, Axsib*, 30 Ummo*, Ofoq va Rexob —
hammasi boʻlib yigirma ikkita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
31 Mana shu yerlarning hammasini Osher qabilasi ulush qilib oldi.

### Naftali qabilasining ulushi

32 Qurʼa boʻyicha oltinchi boʻlib Naftali qabilasi ulush oldi. 33 Naftali qabilasi
hududining janubiy chegarasi Xalef shahridan Zananim shahri yonidagi eman daraxti
yonigacha boradi. U yerdan chegara Adamiy–Naxab, Yobnail va Laxum shaharlarigacha
davom etib, Iordan daryosida tugaydi. 34 Hududning gʻarbiy chegarasi Oznoʻt–Tovur
shahridan oʻtib, Huqqoq shahrigacha boradi. Naftali qabilasining hududi janub tomonda
Zabulun qabilasining hududi bilan chegaradosh, gʻarb tomonda Osher qabilasining
hududi bilan chegaradosh. Sharqiy chegarasi esa Iordan daryosidir*. 35 Naftali
qabilasining hududidagi mustahkam shaharlar quyidagilardir: Ziddim, Zer, Xammat,
Raxat, Keneret, 36 Adamax, Rama*, Xazor, 37 Kedesh, Edrey, En–Xazor, 38 Iroʻn, Migdal–El,
Xorem, Bayt–Onot va Bayt–Shamash* — hammasi boʻlib oʻn toʻqqizta shahar va ularning
atrofidagi qishloqlar.
39 Naftali qabilasi mana shu yerlarni ulush qilib oldi.

### Dan qabilasining ulushi

[40] Qur’a bo‘yicha yettinchi bo‘lib Dan qabilasi ulush oldi. [41] Ularning hududi quyidagi
shaharlardan iborat edi: Zorox, Eshtoyo‘l, Ir–Shamash, [42] Shalabbin, Oyjavlon, Yitla,
[43] Elo‘n, Timnax, Exron, [44] Eltaxa, Gibiton, Baalat, [45] Yohud, Bani–Baraq, Gat–Rimmon,
[46] Mejarkon, Raxxo‘n va Yaffaning qarshisidagi joylar.
[47-48] Mana shu shaharlar va ularning atrofidagi qishloqlar Dan qabilasining ulushi
edi. Ammo keyinchalik dushmanlar kelib, bu yerlarni bosib oldilar. Shunda Dan qabilasi shimol tomonga borib, Layish* shahriga hujum qildi*. Ular shaharni qo‘lga kiritib, butun shahar aholisini qirib tashladilar. O‘zlari esa shu shaharda joylashib, uni o‘z bobosi Dan sharafiga Dan deb atadilar.

### Yoshuaning ulushi

[49] Barcha yerlar Isroil qabilalariga bo‘lib berilgandan keyin, Isroil xalqi Yoshuaga
ham ulush berdi. [50] Egamiz Isroil xalqiga, Yoshua xohlagan shaharni unga beringlar, deb
amr qilgan edi. Yoshua Efrayim qirlaridagi Timnat–Serax shahrini so‘radi. Isroil xalqi o‘sha shaharni Yoshuaga berdi. Yoshua u shaharni qaytadan qurib, o‘sha yerda joylashdi.

[51] Mana shu yerlarning hammasini ruhoniy Elazar*, Nun o‘g‘li Yoshua va qabilalar boshliqlari Isroil qabilalariga ulush qilib berdilar. Ular bu ishlarni Shilo‘dagi* Uchrashuv chodiriga kiraverishda, Egamizning huzurida qur’a tashlab* amalga oshirdilar. Xullas, butun yurtni bo‘lib olish ham o‘z nihoyasiga yetdi.

## 20–BOB

### Panoh shaharlar

[1] Egamiz bir kuni Yoshuaga shunday deb aytdi:
[2] — Isroil xalqiga shu gaplarni yetkazgin: “Muso orqali sizlarga buyurganimday*,
panoh shaharlarni tayinlanglar. [3] Mabodo, birortasi bexosdan odam o‘ldirib qo‘ysa,
qochib o‘sha shaharlardan biriga borsin. Qotil o‘sha shaharlarning birida panoh topib,
marhumning qasos olmoqchi bo‘lgan qarindoshlaridan* omon qoladi. [4] Shaharga yetib
borgandan keyin, qotil shahar darvozasi oldida* o‘tirgan shahar oqsoqollariga o‘z
vaziyatini tushuntirsin. Shunda uni shaharga olib kirib, uy–joy berishadi. [5] Qasoskor
qotilning orqasidan quvib kelsa, qotil qasoskorga berilmasin. Axir, qotil odamni
bexosdan o‘ldirib qo‘ygan, ularning orasida hech qanday adovat yo‘q edi. [6] Jamoa yig‘ilib,
qotilni hukm qilmaguncha, o‘sha odam panoh shaharda qolishi lozim. Qotil aybsiz deb topilgandan keyin* esa o‘sha paytda xizmat qilayotgan oliy ruhoniyning o‘limiga qadar, panoh shaharda yashashi kerak. Oliy ruhoniyning o‘limidan keyingina u o‘zi qochib kelgan joyga qaytib borishi mumkin.”
[7] Iordan daryosining g‘arb tomonida Isroil xalqi panoh shaharlar qilib quyidagi
shaharlarni tayinladi: Naftali qabilasiga tegishli qirlarda joylashgan Jaliladagi Kedesh shahri, Efrayim qabilasiga tegishli qirlardagi Shakam shahri, Yahudo qabilasiga tegishli
qirlardagi Xirat–Arba, ya’ni Xevron shahri. [8] Iordan daryosining sharqida, Yerixo
shahrining qarshi tomonida esa Isroil xalqi quyidagi shaharlarni panoh shaharlar qilib ajratdi: yassi tepalik sahrosida joylashgan, Ruben qabilasiga tegishli bo‘lgan Bazer shahri, Gad qabilasiga tegishli Giladdagi Ramo‘t shahri, Manashe qabilasiga tegishli

Bashandagi Go‘lon shahri. [9] Mana shu shaharlar Isroil xalqi va ularning orasida
yashayotgan begonalar uchun ajratildi. Agar birortasi bexosdan odam o‘ldirib qo‘ysa,
o‘sha panoh shaharlardan biriga qochib boradi. Shunday qilib, jamoa adolatli hukm
chiqarmaguncha, odam o‘ldirgan kishi panoh shaharda xavf–xatarsiz bo‘lib, uni quvib
kelgan qasoskor qo‘lida halok bo‘lmaydi.

# 21–BOB

### Levi qabilasiga berilgan shaharlar

[1] Levi qabilasi urug‘boshilari kelib, ruhoniy Elazar*, Nun o‘g‘li Yoshua va Isroil
qabilalarining boshliqlari bilan gaplashishdi. [2] Isroil xalqi hali ham Kan’on yurtidagi
Shilo‘ shahrida* edi. Levi qabilasidan kelganlar shunday deyishdi: “Levi qabilasiga
yashash uchun shaharlar, qo‘y–mollarini boqish uchun esa shaharlarning atrofidagi
yaylovlarni ber, deb Egamiz Musoga amr qilgan edi*.” [3] Isroil xalqi Egamizning o‘sha
amri bo‘yicha, o‘zlarining yerlaridan Levi qabilasiga ba’zi shaharlarni va ularning
atrofidagi yaylovlarni berdi.

[4] Qur’a* birinchi bo‘lib, Levi qabilasining Qohot* urug‘iga tushdi. Qohot urug‘idan
bo‘lgan Horun* nasliga Yahudo, Shimo‘n va Benyamin qabilalariga qarashli o‘n uchta
shahar berildi.

[5] Yana qur’a bo‘yicha Qohot urug‘ining qolgan oilalariga Iordan daryosining
g‘arbidagi Manashe qabilasining yarmiga tegishli hududdan, Efrayim va Dan qabilalari
hududidan o‘nta shahar berildi.

[6] Qur’a tashlanib, Gershon urug‘idan bo‘lganlarga Iordan daryosining sharqidagi
Manashe qabilasining yarmiga tegishli Bashandagi hududdan, Issaxor, Osher va Naftali
qabilalari hududidan o‘n uchta shahar berildi.

[7] Qur’a bo‘yicha Marori urug‘iga Ruben, Gad va Zabulun qabilalarining hududidan o‘n
ikkita shahar berildi.

[8] Isroil xalqi Egamizning Musoga bergan amriga ko‘ra, qur’a tashlab mana shu
shaharlarni va ularning yaylovlarini Levi qabilasiga berdi.

[9-10] Quyida aytib o‘tilgan, Yahudo va Shimo‘n qabilalari hududlaridagi shaharlarni
Isroil xalqi qur’a bo‘yicha, birinchi bo‘lib Horunning nasli bo‘lgan Qohot urug‘iga berdi.
[11] Ularga Yahudo qirlaridagi Xirat–Arba*, ya’ni Xevron shahri va uning atrofidagi
yaylovlar berildi. Arba Onoq avlodining* bobokaloni edi. [12] Ammo Xirat–Arba yonidagi
dalalar va atrofidagi qishloqlar Yafunax o‘g‘li Xolibga mulk qilib berilgan edi*.

[13] Panoh shaharlaridan biri bo‘lgan Xevrondan tashqari ruhoniy Horun nasliga yana
quyidagi shaharlar va ularning atrofidagi yaylovlar ham berildi: Libna, [14] Yatir,
Eshtamo‘va, [15] Xo‘lun, Davir, [16] Oyin, Yutto va Bayt–Shamash — hammasi bo‘lib Yahudo
va Shimo‘n qabilalarining hududlaridagi mana shu to‘qqizta shahar va ularning
atrofidagi yaylovlar. [17] Benyamin qabilasining hududidan esa quyidagi to‘rtta shahar va
ularning atrofidagi yaylovlar berildi: Givon, Gebo, [18] Onoto‘t, Elmo‘n. [19] Mana shu o‘n
uchta shahar Horun naslidan bo‘lgan ruhoniylarga berildi.

[20] Qohot urug‘ining qolgan oilalariga Efrayim qabilasi hududidan quyidagi to‘rtta
shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ajratib berildi: [21] Efrayim qirlaridagi panoh
shahri bo‘lgan Shakam, Gezer, [22] Xivzayim, Bayt–Xo‘ron. [23] Dan qabilasining hududidan
quyidagi to‘rt shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ham ruhoniylarga berildi: Eltaxa,

Gibiton, [24] Oyjavlon, Gat–Rimmon. [25] Iordanning gʻarb tomonidagi Manashe qabilasining
yarmiga berilgan hududdan quyidagi ikkita shahar va ularning atrofidagi yaylovlar
ruhoniylarga berildi: Tanax, Bilom*. [26] Qohot urugʻining qolgan oilalariga mana shu
oʻnta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar berildi.

[27] Iordanning sharqidagi Manashe qabilasining yarmiga berilgan hududdan Levi
qabilasining Gershon urugʻiga quyidagi ikki shahar va ularning atrofidagi yaylovlar
berildi: Beshtara shahri va Bashandagi panoh shahar Goʻlon. [28] Issaxor qabilasining
hududidan ularga yana quyidagi toʻrtta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ham
berildi: Xishion, Dovarat, [29] Yarmut va En–Xannim. [30] Osher qabilasining hududidagi
quyidagi toʻrtta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ham Gershon urugʻiga berildi:
Mishol, Abdoʻn, [31] Xalkat va Rexob. [32] Ular yana Naftali qabilasi hududidan quyidagi
uchta shahar va ularning atrofidagi yaylovlarni ham oldilar: Xammutdoʻr, Kartan va
Jaliladagi panoh shahar Kedesh.

[33] Gershon urugʻiga mana shu oʻn uchta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar
berildi.

[34] Levi qabilasining qolganlariga, yaʼni Marori urugʻiga Zabulun qabilasining
hududidan quyidagi toʻrtta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar berildi: Yoxnayom,
Kartax, [35] Dimna, Nahalil. [36] Ruben qabilasining hududidan quyidagi toʻrtta shahar va
ularning atrofidagi yaylovlar ham Marori urugʻiga berildi: Bazer, Yaxaz*, [37] Kadamoʻt,
Mifat. [38] Gad qabilasining hududidan esa quyidagi toʻrtta shahar va oʻsha shaharlarning
atrofidagi yaylovlar ularga berildi: Giladdagi panoh shahar Ramoʻt, Moxanayim,
[39] Xashbon, Yazir.

[40] Levi qabilasining Marori urugʻiga mana shu oʻn ikkita shahar berildi.

[41] Isroil xalqining yerlaridan Levi qabilasiga hammasi boʻlib qirq sakkizta shahar va
ularning atrofidagi yaylovlar berildi. [42] Mana shu shaharlarning har birining atrofida
yaylovlar bor edi.

### Isroil xalqi yerga egalik qiladi

[43] Egamiz Isroil xalqiga butun yurtni berdi. Egamizning Oʻzi Isroil xalqining ota–
bobolariga, mana shu yerlarni sizlarga beraman, deb vaʼda qilgan edi. Isroil xalqi u
yerlarni egallab, oʻsha yerlarda joylashdi. [44] Egamiz ularning ota–bobolariga vaʼda
qilganday, butun yurt boʻylab Isroil xalqiga osoyishtalik berdi. Hech bir dushman ularga
bas kela olmadi, chunki Egamizning Oʻzi Isroil xalqiga dushmanlarining ustidan gʻalaba
bergan edi. [45] Egamiz Isroil xalqiga bergan ezgu vaʼdalarning hammasi roʻyobga chiqdi,
birortasi ham bajarilmay qolmadi.

## 22–BOB

### Yoshua Iordanning sharqidan ulush olgan qabilalarni uylariga qaytarib yuboradi

[1] Yoshua Iordan daryosining sharq tomonida ulush olgan Ruben, Gad qabilalarini va
Manashe qabilasining yarmini chaqirib, [2] shunday dedi: “Egamizning quli Muso nima
amr qilgan boʻlsa, hammasini bajardingiz. Men buyurganlarimning hammasiga itoat
qildingiz. [3] Yurtni egallashga shuncha uzoq vaqt ketgan boʻlsa ham, siz oʻz
birodarlaringizni tark etmadingiz, Egangiz Xudo qoʻygan talablarni bitta qoldirmay
bajardingiz. [4] Egangiz Xudo Oʻzi vaʼda qilganday, birodarlaringizga tinchlik berdi.
Egamizning quli Muso sizlarga Iordanning sharq tomonidan ulush bergandi. Endi oʻsha

yerlardagi uylaringizga qaytinglar. [5] Egamizning quli Muso sizlarga buyurgan amr va
qonunlarni bitta qoldirmay bajaringlar. Egangiz Xudoni sevinglar, Uning yoʻlidan yurib,
amrlarini bajarib, Unga sodiq boʻlinglar, Unga butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan
xizmat qilinglar.” [6] Yoshua ularni duo qilib, oʻz yerlariga yubordi. Ular oʻz chodirlariga
qaytib ketishdi.

[7] Manashe qabilasining yarmiga Muso Bashan oʻlkasini ulush qilib bergan edi,
ikkinchi yarmiga esa Yoshua qolgan Isroil qabilalari bilan birga Iordanning gʻarbidan
yer bergan edi. Yoshua duo qilib, ularni oʻz chodirlariga yuborayotganda, [8] shunday
degan edi: “Oʻz chodirlaringizga koʻp boylik bilan, nihoyatda koʻp mol–qoʻy, kumush,
oltin, bronza, temir, koʻp kiyim–kechaklar bilan qaytib ketyapsizlar.
Dushmanlaringizdan olgan oʻsha oʻljalarni birodarlaringiz bilan boʻlishib olinglar.”
[9] Shunday qilib, Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi oʻz uylariga qaytib
ketishdi. Ularning hududi Iordan daryosining sharqida joylashgan edi. Egamiz Oʻz quli
Muso orqali ularga amr qilib: “Mana shu yerlarni egallab olib, shu yerda joylashinglar”,
degan edi. Isroil xalqining qolgan qabilalari Kan’on yurtidagi Shiloʻda* qoldi.

## Iordan daryosi boʻyidagi qurbongoh

[10] Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi hali ham Kan’on yurtida
ekanlar, Iordan daryosidan oʻtishdan oldin, daryoning yonidagi Geliloʻt degan joyda juda
katta qurbongoh qurishdi. [11] Qolgan Isroil xalqiga: “Iordanning sharqidan ulush olgan
Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi biz tomonda, Kan’on yurtining
chegarasida, Geliloʻtda qurbongoh quribdi” degan xabar keldi. [12] Isroil xalqining jamoasi
buni eshitib, Manashe qabilasining yarmi, Ruben va Gad qabilalariga qarshi jang qilish
uchun Shiloʻda yigʻildi.

[13] Ammo avval ular Giladga — Manashe qabilasining yarmi va Ruben, Gad
qabilalarining oldiga ruhoniy Elazar* oʻgʻli Finxazni yuborishdi. [14] Iordanning gʻarbidagi
qabilalarning har biridan bir kishi — oʻz qabilasining boshligʻi boʻlgan oʻn kishi ham
Finxaz bilan birga bordi. [15] Ular Iordan daryosidan oʻtib, Giladga bordilar. Oʻsha yerda
Finxaz va u bilan kelganlar Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmiga
shunday dedilar:

[16] — Biz Egamiz jamoasi nomidan gapiryapmiz. Nima uchun Isroil xalqining
Xudosiga xiyonat qildingiz? Qanday qilib Egamizdan yuz oʻgirib, Unga qarshi bosh
koʻtarib, oʻzingizga qurbongoh qurdingiz?* [17] Piyor togʻida qilgan gunohimiz*
yetmasmidi?! Oʻsha gunoh tufayli Egamizning butun jamoasi boshiga ofat keldi–ku. Biz
hali ham oʻsha gunohdan butunlay poklanganimiz yoʻq. [18] Sizlar esa yana Egamizdan yuz
oʻgiryapsiz?! Sizlar bugun Egamizga qarshi bosh koʻtargan boʻlsangiz, ertaga U butun
Isroil jamoasidan gʻazablanadi. [19] Yeringiz Egamizga sajda qilishga mos kelmaydigan joy
boʻlsa, daryoning narigi tomoniga — Egamizning Muqaddas chodiri tikilgan joyga oʻtib,
bizning oramizda oʻzingizga biror yerni mulk qilib olinglar. Ammo Egamiz Xudoning
qurbongohidan tashqari yana boshqa qurbongoh qurib olib, Egamizga yoki bizga qarshi
bosh koʻtarmanglar*. [20] Zerax oʻgʻli Oxun Egamizga xiyonat qilib*, bagʻishlangan
narsalardan* oʻgʻirlagan edi. Shu tufayli butun Isroil xalqining boshiga kulfat tushdi–ku!
Oʻsha gunoh dastidan yolgʻiz uning oʻzi halok boʻlmadi–ku!

[21] Shunda Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi Isroil qabilalarining
boshliqlariga shunday javob berishdi:

[22] — Xudolar Xudosi Egamizdir! Xudolar Xudosi Egamizdir! Uning Oʻzi guvohimiz
boʻlsin. Egamizning Oʻzi biladi. Butun Isroil xalqi ham bilsin. Biz qurbongohni Egamizga
qarshi bosh koʻtarib yoki Unga xiyonat qilib qurganimiz yoʻq. Agar shu niyatda
qurbongoh qurgan boʻlsak, endi bizni ayamanglar. [23] Biz bu qurbongohni Egamizdan yuz
oʻgirganimiz uchun emas, hatto shu qurbongoh ustida kuydiriladigan qurbonliklaru don
nazrlari va tinchlik qurbonliklari keltirish uchun ham qurganimiz yoʻq. Agar shu niyatda
qurbongoh qurgan boʻlsak, Egamizning Oʻzi bizni jazolasin. [24] Biz qoʻrqqanimizdan
shunday qildik. Vaqti kelib, sizlarning avlodlaringiz bizning avlodimizga shunday deb
qolishi mumkin: “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz bilan sizlarning nima ishingiz bor?!
[25] Egamiz sizlar — Ruben va Gad qabilalari bilan bizning oramizda Iordan daryosini
chegara qilib qoʻydi, Egamizda sizning hech haqingiz yoʻq.” Sizlarning avlodingiz
shunday deb bizning avlodlarimizni Egamizga sajda qilishdan toʻxtatib qoʻyishi mumkin.
[26] Shuning uchun biz shunday dedik: “Kelinglar, qurbongoh quraylik, bu qurbongoh
kuydiriladigan qurbonliklaru boshqa har xil qurbonliklar keltirish uchun ishlatilmaydi.”
[27] Biz bu qurbongohni siz bilan bizning oramizda, bizdan keyingi avlodlar orasida guvoh
boʻlsin, deb qurdik. Biz ham, sizlar qatori, Egamizning Muqaddas chodiri oldida
Egamizga sajda qilib, oʻsha yerda kuydiriladigan qurbonliklar, don nazrlari va tinchlik
qurbonliklari keltirishga haqli ekanimizni mana shu qurbongoh koʻrsatadi. Shunda
sizlarning avlodlaringiz bizning avlodlarimizga hech qachon: “Egamizda sizlarning
haqingiz yoʻq”, — demaydi. [28] Bordi–yu, shunday deb aytishsa, biz yoki avlodlarimiz
quyidagiday javob bera olamiz: “Mana, Egamiz qurbongohining nusxasiga qaranglar.
Bizning ajdodlarimiz uni kuydiriladigan qurbonliklar va boshqa har xil qurbonliklar
keltirish uchun emas, balki siz bilan bizning oʻrtamizda guvoh boʻlishi uchun qurishgan.”
[29] Faqat Egamiz Xudoning Chodiri oldida turgan qurbongohdagina Unga atab
kuydiriladigan qurbonliklar, don nazrlari va boshqa qurbonliklar keltirish mumkin.
Egamizga qarshi bosh koʻtarishdan, Undan yuz oʻgirishdan Uning Oʻzi bizni saqlasin. Biz
qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh qurmaymiz.

[30] Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi aytgan bu gaplarni eshitib,
ruhoniy Finxaz va u bilan birga kelgan Isroil xalqining boshliqlari juda mamnun
boʻlishdi. [31] Ruben, Gad qabilalariga va Manashe qabilasining yarmiga Elazar shunday
dedi:

— Egamiz biz bilan birga ekanligiga bugun amin boʻldik. Sizlar Egamizga xiyonat qilmay, butun Isroil xalqini Uning gʻazabidan saqlab qoldingiz.

[32] Keyin Elazar va Isroil xalqi boshliqlari Giladdan Kan’on yurtiga, Isroil xalqining
oldiga qaytib kelib nima boʻlganini aytib berishdi. [33] Ular olib kelgan xabar Isroil xalqini
mamnun qildi. Isroil xalqi Xudoga hamdu sano aytib, Ruben va Gad qabilalariga qarshi
jang qilish va ularning yerlarini vayron qilish haqida boshqa ogʻiz ochmadi. [34] Ruben va
Gad qabilalari qurbongohga Guvoh degan nom berishdi*, chunki ular: “Egamiz — Xudo
ekanligini bu qurbongoh hammamizga eslatib turadi”, deb aytishgan edi.

## 23–BOB

### Yoshuaning oxirgi nasihatlari

[1] Oradan yillar oʻtdi. Egamiz Isroil xalqiga tinchlik ato qildi, atrofdagi dushmanlar
ularga xavf solmas edi. Yoshua ham yoshi ancha oʻtib, qarib qolgan edi. [2] U butun Isroil

xalqini, ularning oqsoqollariyu boshliqlarini, hakam va nazoratchilarini chaqirib
shunday dedi: “Mening yoshim ham oʻtdi, ancha qarib qoldim. 3 Egangiz Xudo sizlar
uchun atrofingizdagi xalqlarni nima qilganini koʻrdingiz. Egangiz Xudoning Oʻzi sizlar
uchun jang qildi. 4 Men Isroil xalqining qabilalariga sharqda Iordan daryosidan boshlab
gʻarbdagi Oʻrta yer dengizigacha* boʻlgan yerlarni mulk qilib berdim. Men sizlarga
magʻlub boʻlgan xalqlarning ham, hali magʻlub qilinmagan xalqlarning ham yerlarini
taqsimlab berdim. 5 Egangiz Xudoning Oʻzi oʻsha xalqlarni oldingizdan haydab, orqaga
chekintiradi. Egangiz Xudoning Oʻzi va’da qilganday, sizlar ularning yerlarini
egallaysizlar. 6 Musoning Tavrot kitobida* yozilgan barcha qonunlarga amal qilinglar.
Ularni bitta qoldirmay bajaringlar. 7 Orangizda qolgan oʻzga xalqlarga qoʻshilmanglar.
Ularning xudolarining nomlarini tilga ham olmanglar, oʻsha xudolarning nomi bilan
qasam ichmanglar. U xudolarga sajda ham qilmanglar, xizmat ham qilmanglar. 8 Sizlar
shu paytgacha Egangiz Xudoga sodiq boʻlib keldingizlar, bundan keyin ham Unga sodiq
boʻlib qolinglar. 9 Egamiz sizlarning oldingizdan katta va kuchli xalqlarni haydab
chiqardi, mana shu kungacha hech kim sizlarga bas kela olgani yoʻq. 10 Egangiz Xudo
va’da qilganday, Uning Oʻzi sizlar uchun jang qiladi. Dushmanlarning mingtasi
bittangizga bas kela olmaydi. 11 Shuning uchun doimo chin dildan Egangiz Xudoni
sevinglar. 12 Undan yuz oʻgirmanglar, orangizdagi oʻzga xalqlar bilan aralashmanglar,
ular bilan quda–andachilik qilmanglar. 13 Agar shunday qilsangiz, bilib qoʻyingki,
Egangiz Xudo oʻsha xalqlarni sizlarning oldingizdan boshqa haydab chiqarmaydi. Ular
sizlarga qopqon va tuzoqday, yelkalaringizga qamchiday, koʻzlaringizga esa tikanday
boʻladi. Oxiri, Egangiz Xudo sizlarga bergan mana shu hosildor yurtda birortangiz ham
tirik qolmaysiz.
14 Men ham bir bandaman, umrim oxirlab boryapti. Shubhasiz, hammangiz bilasiz,
Egangiz Xudo sizlarga yaxshi va’dalar bergan edi, shu va’dalarning hammasi roʻyobga
chiqdi, ularning birortasi ham bajarilmay qolmadi. 15 Egangiz Xudo sizlarga va’da qilgan
barcha yaxshi narsalarni roʻyobga chiqardi. Agar Egamizga itoat qilmasangiz, U sizlarni
ogohlantirib aytgan kulfatlarni boshingizga soladi. Oqibatda U sizlarga bergan mana shu
hosildor yurtdan sizlarni butunlay yoʻq qilib tashlaydi. 16 Agar sizlar Egangiz Xudo bilan
qilgan ahdni buzib, boshqa xudolarga ergashsangiz, ularga xizmat qilib, sajda qilsangiz,
sizlarga qarshi Egamizning gʻazabi qoʻzgʻaydi–da, U sizlarga bergan mana shu hosildor
yurtda tez orada qirilib ketasizlar.”

## 24–BOB

### Yoshuaning Shakamda soʻzlagan nutqi

1 Keyin Yoshua barcha Isroil qabilalarini, ularning oqsoqollarini, boshliqlarini,
hakamlarini va nazoratchilarini Shakamga* chaqirtirdi. Ular Xudoning huzuriga keldilar.
2 Yoshua butun xalqqa shunday dedi:
— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday demoqda: “Qadimda sizlarning
ajdodlaringiz, jumladan, Terah va uning oʻgʻillari Ibrohim hamda Naxoʻr Furot
daryosining narigi tomonida yashaganlar. Ular boshqa xudolarga xizmat qilganlar. 3 Men
sizlarning ota–bobongiz boʻlgan Ibrohimni Furotning narigi tomonidagi yerdan olib
chiqib, butun Kan’on yurti boʻylab boshlab bordim. Ibrohimning naslini koʻpaytirdim.
Ibrohimga Is’hoqni berdim. 4 Is’hoqqa esa Yoqub va Esovni berdim. Esovga yashash

uchun Seir togʻlarini* berdim. Yoqub va uning farzandlari esa Misrga bordilar. 5 Keyin
Muso va Horunni Misrga yuborib, Misr xalqining boshiga falokatlar keltirdim.
Oʻshandan keyin sizlarni Misrdan olib chiqdim. 6 Ota–bobolaringiz Qizil dengizga yetib
keldi. Misrliklar esa aravakashlari va jang aravalari bilan ularni Qizil dengizgacha* quvib
bordilar. 7 Ota–bobolaringiz Menga iltijo qilganlarida, Men Misrliklar va ota–
bobolaringiz orasiga zulmat tushirdim. Misrliklarning ustiga dengiz suvlarini bostirib,
ularni choʻktirdim. Misrni qay ahvolga solganimni sizlar oʻz koʻzingiz bilan koʻrdingiz.
Undan keyin sizlar sahroda uzoq vaqt yashadingiz. 8 Keyin Men sizlarni Iordan
daryosining sharq tomonidagi yurtga olib keldim. U yerda Amor xalqi yashar edi. Ular
sizlarga qarshi chiqib jang qildi. Men sizlarga ularning ustidan gʻalaba ato qildim. Ularni
sizlarning oldingizdan qirib tashladim, sizlar ularning yerlarini egallab oldingiz. 9 Keyin
Moʻab shohi — Zippur oʻgʻli Boloq sizlarga qarshi jangga chiqdi. Isroil xalqini laʼnatlasin
deb, u Bavoʻr oʻgʻli Balomni chaqirtirdi*. 10 Ammo Men Balomga quloq solmadim,
aksincha, u oʻz ixtiyoriga qarshi sizlarni duo qildi. Shunday qilib, Men sizlarni Boloqning
qoʻllaridan qutqardim. 11 Sizlar Iordandan oʻtib, Yerixoga kelganingizda, Yerixo aholisi
sizlarga qarshi jang qildi. Amor, Pariz, Kanʼon, Xet, Girgosh, Xiv va Yobus xalqlari ham
sizlarga qarshi urush qildi. Men sizlarga ularning ustidan gʻalaba berdim. 12 Ikki Amor
shohini* vahimaga soldim–da, quvib yubordim*. Bu gʻalabaga sizlar oʻz qilichu
kamoningiz bilan erishmadingiz. 13 Men sizlarga oʻzingiz ishlov bermagan yerlarni
berdim. Endi sizlar oʻzingiz qurmagan shaharlarda yashayapsizlar, oʻzingiz ekmagan
uzumzoru zaytun bogʻlarining mevasini yeyapsizlar.”

14 Yoshua gapida davom etib, shunday dedi:

— Endi Egamizdan qoʻrqing, Unga sodiq boʻlib, doimo chin dildan xizmat qiling.
Ajdodlaringiz Furot daryosining narigi tomonida va Misrda sajda qilgan xudolarning
tasvirlarini uloqtirib yuboring, faqatgina Egamizga xizmat qiling. 15 Agar Egamizga
xizmat qilishni maʼqul koʻrmasangiz, kimga xizmat qilishingizni bugun tanlang. Furot
daryosining narigi tomonida yashagan paytda sajda qilgan xudolaringizga xizmat
qilasizlarmi? Yoki oldin Amor xalqlariga tegishli boʻlgan yerlarda yashayotganingiz
uchun endi ularning xudolariga xizmat qilasizlarmi? Bugun tanlang. Men va oilam esa
Egamizga xizmat qilamiz.

16 Xalq shunday javob berdi:

— Xudo saqlasin! Biz hech qachon boshqa xudolarga xizmat qilish uchun Egamizni
tashlab ketmaymiz! 17 Bizni va ota–bobolarimizni Misrdagi qullikdan olib chiqqan
Egamiz Xudodir. U qilgan moʻjizalarni biz oʻz koʻzimiz bilan koʻrdik. Turli xalqlarning
orasidan oʻtganimizda, qayerga bormaylik, U bizni himoya qildi. 18 Mana shu yurtda
yashagan Amor va boshqa xalqlarning hammasini Egamiz bizning oldimizdan haydab
yubordi. Shuning uchun ham biz Egamizga xizmat qilamiz, U bizning Xudoyimizdir.

19 Yoshua xalqqa shunday dedi:

— Egamiz Muqaddas Xudodir. U sizning sevgingizni boshqa xudolar bilan baham
koʻrmaydigan Xudodir. Egamizga sodiq qolish oson, deb oʻylamanglar. Agar Unga qarshi
bosh koʻtarsangiz yoki gunoh qilsangiz, U sizlarni kechirmaydi. 20 Egamiz sizlarga
shuncha yaxshilik qilgan boʻlsa ham, agar Uni tashlab, boshqa xudolarga xizmat
qilsangiz, U boshingizga kulfat keltirib, sizlarni qirib tashlaydi.

21 Xalq Yoshuaga shunday dedi:

— Yoʻq, boshqa xudolarga xizmat qilmaymiz, biz Egamizga xizmat qilamiz!

[22] Shunda Yoshua xalqqa dedi:
— Sizlar, Egamizga xizmat qilamiz, deb qaror qildingiz. Bunga oʻzingiz guvohsiz.
— Ha, guvohmiz, — deb javob berdi xalq.
[23] Yoshua:
— Unday boʻlsa, orangizdagi begona xudolarning tasvirlarini uloqtirib yuboringlar,
butun qalbingiz bilan Isroil xalqining Xudosi — Egamizga bogʻlaninglar, — dedi.
[24] Xalq Yoshuaga shunday dedi:
— Egamiz Xudoga xizmat qilamiz, Unga quloq solamiz.
[25] Oʻsha kuni Yoshua Shakamda xalq bilan ahd tuzib, ular bajarishlari uchun qonun–
qoidalar berdi. [26] Yoshua bu soʻzlarni Xudo Oʻz xalqiga bergan qonunlar bayon etilgan
kitobga yozdi. Keyin katta tosh olib, uni Egamizga atalgan sajdagohdagi* eman
daraxtining tagiga yodgorlik qilib oʻrnatdi. [27] Yoshua butun xalqqa shunday dedi:
— Qaranglar, mana shu tosh Egamiz bizga aytgan hamma gaplarni eshitdi, shuning
uchun agar Egamizga bergan va'damizda turmasak, bu tosh bizga qarshi guvoh boʻladi.
[28] Shundan keyin Yoshua xalqni ularga ulush qilib bergan yerlarga yubordi.

### Yoshua va Elazar vafot etadilar

[29] Birmuncha vaqtdan keyin Egamizning quli Yoshua 110 yoshga kirib vafot etdi.
[30] Uni Timnat–Serax shahrida dafn qildilar. Bu shahar unga ulush qilib berilgan boʻlib*,
Gash togʻining shimolida, Efrayim qirlarida joylashgan edi.
[31] Yoshua davrida Isroil xalqi Egamizga xizmat qilar edi. Ular Yoshuaning oʻlimidan
soʻng, Egamiz Isroil uchun qilgan hamma ishlarini koʻrgan oqsoqollar davrida ham
Egamizga itoat qilishar edi.
[32] Isroil xalqi Misrdan chiqqanda Yusufning suyaklarini oʻzlari bilan olgan edi*. Ular
mana shu suyaklarni Shakamda koʻmishdi. Yoqub bu yerni Shakamning otasi
Xamoʻrning oʻgʻillaridan yuz boʻlak kumushga* sotib olgan edi*. Oʻsha yer Yusuf
avlodlarining ulushi boʻlib qoldi.
[33] Horun oʻgʻli Elazar ham vafot etdi. Elazarning oʻgʻli Finxazga Efrayim qirlaridagi
Givo shahri ulush qilib berilgan edi. Elazar oʻsha joyga dafn qilindi.

# IZOHLAR

**1:2** *...Iordan daryosidan oʻtishga tayyorlaninglar* — oʻsha paytda Isroil xalqi Iordan daryosining sharqidagi Moʻab tekisligida turar edi (Sahroda 36:13 ga qarang).

**1:4** *Oʻrta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

**1:4** *...Xet xalqining hamma yerlari...* — bu oʻrinda Suriyaning shimoldagi yerlari nazarda tutilgan. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XET XALQI iborasiga qarang.

**1:8** *Tavrot kitobi* — Qonunlar kitobida yozilganlarning aksariyat qismi nazarda tutilgan boʻlishi mumkin (Qonunlar 29:21, 30:10, 31:24-26 ga qarang).

**1:13** *...Muso sizlarga amr qilib aytgan soʻzlarini eslang* — Sahroda 32:28-33, Qonunlar 3:18-20 ga qarang.

**2:1** *Shitimdagi qarorgoh* — Oʻlik dengizning shimoli–sharqida, Moʻab tekisligida joylashgan (Sahroda 33:49 ga qarang).

**2:1** *Yerixo shahri* — oʻsha hududdagi eng muhim shahar. Iordan daryosidan qariyb 10 kilometr gʻarbda joylashgan.

**2:7** *...shahar darvozasi yopildi* — odatda qadimgi paytlarda shaharlar devor bilan oʻralgan boʻlib, katta darvozasi ham bor edi. Xavfsizlik maqsadida darvoza kechasi yopib qoʻyilardi.

**2:10** *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, maʼnosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qoʻltigʻi (yaʼni Qizil dengizning shimoli–gʻarbidagi qoʻltiq) yoki Suets qoʻltigʻi va Oʻrta yer dengizi oraligʻida joylashgan koʻllardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga koʻra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga toʻsiq boʻlgan, chuqurligidan Misr lashkari choʻkib ketgan.

**2:15** *Rahobaning uyi shahar devorlariga taqalib qurilganligi uchun...* — qadimgi paytlarda shaharlar baland devorlar bilan oʻralgan edi. Bu devorlar shaharni bosqinchilar hujumidan himoya qilardi. Arxeologik qazuvlar natijasida Yerixo shahrining devorlari ikki qavat — ichki va tashqi devorlardan iborat boʻlganligi aniqlangan. Ichki va tashqi devorning oraligʻi taxminan toʻrt metr boʻlib, bir devordan boshqa devorga taqab oʻrnatilgan yoʻgʻon yogʻochlar ustiga uylar qurilgandi. Rahoba aygʻoqchilarni chiqarib yuborgan deraza shaharning tashqi devorida joylashgan edi.

**2:23** *Ular daryoni kechib oʻtib...* — aygʻoqchilar Isroil xalqi qarorgoh qurgan joyga — daryoning sharq tomoniga qaytib borgan edilar (1:2 ga qarang).

**3:4** *ikki ming tirsak* — taxminan 900 metrga toʻgʻri keladi.

**3:5** *Oʻzingizni poklang...* — diniy xizmatni lozim darajada bajarishga monelik qiladigan nopoklikdan tozalanish marosimi nazarda tutilgan.

**3:10-11** *...Ahd sandigʻi oldingizda Iordan daryosidan oʻtadi* — Ahd sandigʻini koʻtarib borgan ruhoniylar birinchi boʻlib daryoga kirishlari kerak edi (shu bobning 13-14–oyatlariga qarang). Matnda Xudo Oʻz xalqini jangga boshlab borishiga urgʻu berilgan. Ahd sandigʻi Xudo huzurining ramzi boʻlib xizmat qilardi.

**3:15** *Hosil mavsumi* — kech bahor paytiga ishora.

**3:16-17** *...Zoraton yonidagi Adam shahri...* — Adam Yerixodan qariyb 30 kilometr shimolda, Zoraton shahri esa Adamdan qariyb 20 kilometr shimolda joylashgan.

**3:16-17** *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Araba dengizi, ya’ni Tuz dengizi*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda O‘lik dengiz joylashgan cho‘l yerlarni bildiradi.

**4:9** *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

**4:12** *Muso buyurganday...* — 1:12-15 va Sahroda 32:16-33 ga qarang.

**4:14** *...Isroil xalqining ko‘zi oldida Yoshuaning nomini yuksaltirdi* — 3:7 ga qarang.

**4:15-16** *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Ikkala tosh lavha Sandiqning ichida saqlanib, Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi.

**4:19** *birinchi oy* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

**4:19** *Gilgal* — bu joy Yerixodan qariyb 4 kilometr shimoli–sharqda bo‘lgan.

**4:23** *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. 2:10 izohiga qarang.

**5:2** *Toshdan pichoqlar yasab...* — bu tosh pichoqlar qoyatoshning uzun, ensiz parchasidan yasalgan edi. Qoyatoshni yo‘nib, undan o‘tkir tig‘ hosil qilishar edi.

**5:2** *...Isroil xalqining bu yangi avlodini sunnat qilinglar* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Xalq sunnat qilinmay turib Fisih ziyofatini nishonlay olmasdi (Chiqish 12:48-49 ga qarang).

**5:3** *Givot–Xarilo‘t* — ibroniychadagi ma’nosi *Sunnat terisi tepaligi*.

**5:6** *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

**5:9** *Gilgal* — bu nom ibroniychadagi *dumalatib tashlamoq* so‘ziga ohangdosh. Bu oyatda o‘sha ibroniycha so‘z *olib tashladim* deb tarjima qilingan.

**5:10** *...oyning o‘n to‘rtinchi kunida...* — ibroniy kalendarining birinchi oyi nazarda tutilgan (4:19 ning birinchi izohiga qarang).

**5:11** *xamirturushsiz non* — Fisih ziyofatida va undan keyin bir hafta davomida Isroil xalqi faqat xamirturushsiz nonlarni iste’mol qilishlari kerak edi. O‘sha hafta Xamirturushsiz non bayrami deb atalgan (Chiqish 12:14-20, 13:3-10 ga qarang).

**5:12** *manna* — Xudo Isroil xalqiga qirq yil davomida sahroda yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi. So‘ng uni yanchib, non yopishardi yoki qaynatib ovqat tayyorlashardi (Chiqish 16:13-35, Sahroda 11:7-9 ga qarang).

**6:16** *...bag‘ishlanib, yo‘q qilinsin* — shu ibora bilan tarjima qilingan ibroniycha so‘zning ma’nosi quyidagicha: butun shahar, u yerdagi odamlaru hayvonlar va buyumlar Xudoga

bagʻishlanib, tamoman yoʻq qilingan. Baʼzi hollarda buyumlar Xudoga nazr qilingan.

**6:22** *...ularni Isroil qarorgohining yoniga...keltirdilar* — Rahoba va uning oilasi Kanʼonlik boʻlganlari uchun harom hisoblangan edilar. Shu bois ular Isroil qarorgohiga olib kirilmagan edi. Agar aygʻoqchilar ularni Isroil qarorgohiga olib kirganlarida edi, qarorgoh bulgʻangan boʻlar edi. Oqibatda, Egamiz Isroil lashkariga jangda yordam bermagan boʻlardi (Qonunlar 23:9-14 ga qarang). Keyinchalik Rahoba va uning xonadoni Isroil xalqiga qoʻshilib (shu bobning 24–oyatiga qarang), Rahoba Salmoʻnga erga tegadi (Matto 1:5 ga qarang). Shoh Dovud Rahoba naslidan kelib chiqadi (Rut 4:18-22 ga qarang).

**6:23** *Egamizning uyi* — oʻsha davrda Isroil xalqi Egamizga sajda qilgan joy, yaʼni Muqaddas chodirga ishora.

**6:24** *Uning xonadoni oʻshandan beri Isroilda yashaydi* — shu kitob yozilgan davrda Rahobaning xonadoni Isroil xalqi orasida yashardi.

**6:25** *...Egamiz oldida laʼnati boʻlsin!* — bu soʻzlar shoh Axab davrida amalga oshgan (3 Shohlar 16:34 ga qarang).

**7:1** *bagʻishlangan narsalar* — 6:17-20 oyatlarga va 6:16 izohiga qarang.

**7:1** *Zimri* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zabdi* (shu bobning 17, 18–oyatlarida ham bor). Uning Zimri degan shakli 1 Solnomalar 2:6 dan olingan.

**7:1** *Egamiz Isroil xalqidan qattiq gʻazablandi* — faqat Oxun itoatsizlik qilgan boʻlsa–da, Egamizning amri buzilgani uchun butun Isroil xalqi aybdor hisoblangan edi.

**7:2** *Ay shahri* — Yerixo shahridan qariyb 24 kilometr gʻarbda, Baytil shahridan qariyb 3 kilometr janubi–sharqda joylashgan.

**7:5** *tosh qaziladigan joy* — yoki *Shebarim*.

**7:14** *Egamiz...tanlaydi* — Egamiz Oʻz irodasini odamlarning qurʼa tashlashi orqali ayon qilgan boʻlishi mumkin. Qurʼa tashlashda yogʻoch boʻlaklari yoki toshlar ishlatilgan boʻlib, shu orqali biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligi aniqlangan. Bu yerda qurʼa kim aybdor ekanini koʻrsatgan (shu bobning 16-18–oyatlariga qarang).

**7:21** *Shinar* — Mesopotamiyadagi, yaʼni Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan yerlardagi bir hududning qadimgi nomi. Keyinchalik bu hududda Bobil shohligi barpo boʻlgan.

**7:21** *500 misqol* — ibroniycha matnda *200 shaqal*, taxminan 2,2 kiloga toʻgʻri keladi.

**7:21** *125 misqol* — ibroniycha matnda *50 shaqal*, taxminan 550 grammga toʻgʻri keladi.

**7:26** *Oxor* — ibroniychadagi maʼnosi *kulfat*.

**8:14** *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom boʻlib, bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan Oʻlik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

**8:15** *sahro taraf* — sahro Ay shahridan sharqda joylashgan.

**8:28** *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora (shu bobning 29–oyatida ham bor).

**8:29** *...kechgacha...* — Qonunlar 21:22-23 ga qarang.

**8:30** *Yoshua…Ebal tog‘ida qurbongoh qurdi* — Qonunlar 27:1-8 ga qarang. Ebal tog‘i Ay shahridan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan.

**8:31** *Tavrot kitobi* — 1:8 izohiga qarang.

**8:31** *Tavrot kitobidagi ko‘rsatmalar* — Chiqish 20:25, Qonunlar 27:5-6 ga qarang.

**8:33** *…Garizim tog‘i…Ebal tog‘i…* — Garizim tog‘i Ebal tog‘idan janubda joylashgan. Bu ikki tog‘ orasidan Shakam vodiysi o‘tgan.

**8:33** *Muso…buyurgan edi* — Qonunlar 27:11-13 ga qarang.

**9:1** *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

**9:3** *Givon* — Ay shahridan qariyb 10 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan shahar.

**9:4** *…yo‘lga tayyorgarlik ko‘rib…* — yoki *…o‘zlarini elchi qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lib…*.

**9:6** *Gilgaldagi qarorgoh* — 4:19 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang.

**9:7** *Xiv xalqidan bo‘lgan bu odamlar* — Givon shahridan edilar. Egamiz Xiv xalqini boshqa xalqlar qatori Kan’on yurtidan haydab yuborishni Isroil xalqiga amr qilgan edi (3:10 ga qarang).

**9:7** *Balki sizlar bizga yaqin joyda yasharsizlar, biz qanday qilib sizlar bilan sulh tuzamiz?* — Xudoning Muso orqali bergan amriga ko‘ra, Isroil xalqi faqat olis yurtlarda yashaydigan xalqlar bilan sulh tuzishi mumkin edi (Qonunlar 20:10-15 ga qarang). Kan’on yurtida istiqomat qilayotgan barcha xalqlarni esa bitta qoldirmay qirib tashlashi shart edi (Qonunlar 20:16-18 ga qarang).

**9:10** *…Sixo‘nni va…O‘gni nimalar qilganini…* — Sahroda 21:21-35, Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang.

**9:17** *Givon, Xafira, Baro‘t va Xirat–Yo‘rim* — bu shaharlar Isroil xalqining Gilgaldagi qarorgohidan qariyb 30-50 kilometr g‘arbda joylashgan.

**9:23** *Xudoyimning uyi* — o‘sha davrda Isroil xalqi Xudoga sajda qilgan joy, ya’ni Muqaddas chodirga ishora.

**9:27** *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

**10:1** *Quddus* — o‘sha paytda Quddus shahri Isroil xalqiga emas, balki Yobus xalqiga tegishli edi.

**10:3** *Xevron…Eglon…* — Xevron shahri Quddusdan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi. Yarmut, Laxish va Eglon shaharlari ham Quddusga yaqin joyda, qariyb 25-55 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

**10:9** *…Gilgaldan…* — Givon va Gilgal orasidagi masofa qariyb 32 kilometrga to‘g‘ri kelardi.

**10:10** *…Ozikah va Makkedoga yetib…* — qariyb 30 kilometrli masofa.

**10:12** *Oyjavlon vodiysi* — Givon shahridan qariyb 15 kilometr g‘arbda joylashgan.

**10:13** *“Yoshur” kitobi* — ibroniychadagi ma’nosi *Solihlar kitobi*. Ehtimol, bu kitob jangnoma bo‘lib, qadimiy dostonlar va qo‘shiqlar majmuasidan iborat edi. Bu kitob hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. 2 Shohlar 1:18 da ham o‘sha kitobga ishora qilingan.

**10:28** *Makkedo shahri* — bu shahar, shuningdek, shu bobning 28-38–oyatlarida aytib o‘tilgan hamma shaharlar Kan’onning janubida joylashgan edi.

**10:40** *Nagav cho‘li* — hozirgi Isroilning janubida, O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan yerlar.

**10:41** *Go‘shen yerlari* — Yahudo qabilasiga berilgan qirlar va janubda joylashgan Nagav cho‘li oralig‘idagi yerlar. Ibtido va Chiqish kitoblarida tilga olingan Misr yurtidagi Go‘shendan boshqa yerlar.

**11:1** *Xazor shahri* — Jalila ko‘lidan qariyb 15 kilometr shimolda joylashgan. Bu shahar va mazkur bobning 1-15–oyatlarida aytib o‘tilgan hamma shaharlar Kan’onning shimolida joylashgan.

**11:2** *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

**11:2** *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan (shu bobning 16–oyatida ham bor).

**11:3** *Mispax yeri* — shu bobning 8–oyatidagi Mispax vodiysi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur oyatdagi Mispax 15:38 va 18:26 da Mispax deb atalgan ikkala joydan boshqa. Eski Ahdda bir nechta joy Mispax degan nom bilan yuritilgan.

**11:5** *Mirom* — Jalila ko‘lidan qariyb 13 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

**11:8** *...Buyuk Sidon va Misrafo‘t–Mayimgacha...Mispax vodiysigacha...* — bu uchta joy Miromdan qariyb 30-55 kilometr shimolda joylashgan.

**11:13** *tepalik* — asrlar davomida shaharlar qurilib, vayron bo‘lgan, vayronalar ustiga yangi shaharlar barpo qilinavergan, shu tariqa tepaliklar hosil bo‘lib boravergan. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z shunday tepaliklarga ishora qiladi. Isroil xalqi bu tepaliklar ustida qurilgan shaharlarni qo‘lga kiritib, u yerlarda yashagan bo‘lishi mumkin (Qonunlar 6:10-11 ga qarang).

**11:16** *Nagav cho‘li* — 10:40 izohiga qarang.

**11:16** *Go‘shen yerlari* — 10:41 izohiga qarang.

**11:17** *Seir* — Edom yurtiga qarashli bo‘lgan tog‘li yerlar.

**11:19** *Givondagi Xiv xalqidan tashqari...* — 9:3-15 oyatlarga va 9:7 ning izohlariga qarang.

**11:21** *Onoq avlodi* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (Sahroda 13:33-34, Qonunlar 1:28, 2:10-11, 20-21, 9:1-2 ga qarang).

**11:22** *G‘azo, Gat va Ashdod shaharlari* — bu shaharlar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

**12:1** *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba* (shu bobning 3, 8–oyatlarida ham bor). Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

**12:2** *Isroil xalqi mag‘lub qilgan shohlardan biri...Sixo‘n edi* — Sahroda 21:21-31, Qonunlar 2:26-37 ga qarang.

**12:3** *Jalila koʻli* — ibroniycha matnda *Keneret koʻli*, oʻsha vaqtda Jalila koʻli va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

**12:3** *Oʻlik dengiz* — ibroniycha matnda *Araba dengizi, yaʼni Tuz dengizi*. Araba umumiy geografik nom boʻlib, bu oyatda Oʻlik dengiz joylashgan choʻl yerlarni bildiradi.

**12:4** *Magʻlub boʻlgan Bashan shohi Oʻg…* — Sahroda 21:33-35, Qonunlar 3:1-11 ga qarang.

**12:4** *Rafa xalqi* — Isroil xalqidan avval Kanʼonda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur boʻlgan xalq (Qonunlar 2:10-11, 20-21, 3:11 ga qarang).

**12:7** *Seir* — 11:17 izohiga qarang.

**12:8** *Nagav choʻli* — 10:40 izohiga qarang.

**12:23** *Nafoʻt–Doʻr* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Nafat–Doʻr*.

**12:23** *Gilgal* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Jalila*.

**13:3** *Shixor irmogʻi* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmogʻi nazarda tutilgan (yana 15:4, 47, Ibtido 15:18 va Sahroda 34:5 ga qarang).

**13:3** *Avim xalqi* — qadimda Oʻrta yer dengizi boʻyida istiqomat qilgan xalq (Qonunlar 2:23 ga qarang). Filist xalqi Avim xalqining yurtini bosib olgandan keyin, ularning omon qolganlari Filistlardan janubda oʻrnashgan edi.

**13:4** *Ofoq* — 12:18 da aytib oʻtilgan Ofoqdan boshqa shahar. Mazkur oyatdagi Ofoq hozirgi Bayrutdan qariyb 40 kilometr shimolda joylashgan boʻlishi mumkin.

**13:5** *Gabol* — Oʻrta yer dengizi boʻyidagi Finikiyaga qarashli shahar boʻlib, Sidon shahridan shimolda joylashgan edi.

**13:5** *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

**13:7** *Manashe qabilasining yarmi* — Iordan daryosining gʻarb tomonidagi Kanʼon yurtida oʻrnashgan qabilaning yarmi nazarda tutilgan (22:7 ga qarang). Qabilaning ikkinchi yarmi Iordan daryosining sharq tomonida oʻrnashgan edi (shu bobning 8, 29-31–oyatlariga va 1:12-14 ga qarang).

**13:9** *soylik* — ikki adir oraligʻidagi pastlik. Baʼzi soyliklar vodiy kabi keng boʻlardi. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi SOYLIK soʻziga qarang.

**13:11-12** *Rafa xalqi* — 12:4 ning ikkinchi izohiga qarang.

**13:14** *Egamiz aytganday…Levi qabilasining ulushidir* — Qonunlar 18:1-2 ga qarang.

**13:22** *Balom* — Sahroda 22:1-24:25 ga qarang.

**13:25** *Rabba shahri* — Ommon yurtining poytaxti.

**13:25** *Aror shahri* — shu bobning 16–oyatida aytib oʻtilgan Arordan boshqa shahar.

**13:27** *Jalila koʻli* — ibroniycha matnda *Keneret koʻli*, oʻsha vaqtda Jalila koʻli va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

**13:33** *“Men Oʻzim sizlarning ulushingiz boʻlaman”, deb vaʼda bergan edi* — Xudo Levi qabilasining muhtojliklarini qondirishga vaʼda bergan edi. Xudoning amriga koʻra, Levi qabilasi Isroil xalqining Egamizga keltirgan qurbonligu nazrlaridan ular yeyish

huquqiga ega edilar (Qonunlar 18:1-2 ga qarang). Xalqdan yigʻilgan ushr ham bu qabila vakillariga tegishli edi (Qonunlar 14:28-29 ga qarang), shuningdek, ularga ayrim shaharlar va shahar atrofidagi yaylovlar berilgan edi (21:1-3 ga qarang).

**14:1** *Elazar* — Horunning oʻgʻli, oliy ruhoniylik xizmatini davom ettirgan edi (Sahroda 20:22-29 ga qarang).

**14:2** *...qurʼa tashlab belgilandi* — qurʼa tashlashda yogʻoch boʻlaklari yoki toshlar ishlatilgan boʻlib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Baʼzan odamlar qurʼa tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini soʻrashgan.

**14:3-4** *Yusufning ikkala oʻgʻli...Levi qabilasi hech qanday ulush olmadi* — Isroil xalqining 12 qabilasi Yoqubning 12 oʻgʻlidan kelib chiqqan. Bularning orasida Levi qabilasi ulush qilib yer olmagandi (13:14 ga qarang). Biroq Yusufning ikkala oʻgʻli — Efrayim va Manashe ikki ulush yer olganlari uchun, Isroil xalqiga hammasi boʻlib 12 ulush yer, yaʼni 2,5 ulush yer Iordan daryosining sharqidan va 9,5 ulush yer Iordanning gʻarbidan boʻlib berilgandi.

**14:6** *Xolib* — Muso Kanʼon yurtiga yuborgan oʻn ikki aygʻoqchidan biri (Sahroda 13–bobga qarang).

**14:9** *...Muso qasam ichib menga shunday degan edi...* — Qonunlar 1:34-36 ga qarang.

**14:12** *Egamiz oʻsha kuni vaʼda qilgan qirlar* — Sahroda 14:24, 30 ga qarang.

**14:12** *Onoq avlodi* — 11:21 izohiga qarang.

**14:13** *Xevron shahri* — 10:3 izohiga qarang.

**14:15** *Xirat–Arba* — ibroniychadagi maʼnosi *Arba shahri*.

**15:2** *Oʻlik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi* (shu bobning 5–oyatida ham bor).

**15:3** *Chayonlar dovoni* — ibroniycha matnda *Akrabim dovoni*, maʼnosi *chayonlar dovoni*.

**15:4** *Misr chegarasidagi irmoq* — 13:3 ga va oʻsha oyatning birinchi izohiga qarang.

**15:7** *Davir* — shu bobning 15–oyatida hamda 10:38-39 da aytib oʻtilgan Davirdan boshqa shahar.

**15:7** *Gilgal* — 4:19 da aytib oʻtilgan Yerixo yonidagi Gilgal emas.

**15:9** *hozirgi paytda* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

**15:10** *Seir togʻlari* — 11:17 izohiga qarang.

**15:10** *Bayt–Shamash shahri* — 19:41 da aytib oʻtilgan Ir–Shamashning yana bir nomi boʻlishi mumkin. Oʻsha davrda Bayt–Shamash nomli yana ikkita shahar bor edi (19:22, 38 ga qarang).

**15:12** *Oʻrta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz* (shu bobning 47–oyatida ham bor).

**15:13** *Hozirgi paytda* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

**15:13** *Xirat–Arba* — ibroniychadagi maʼnosi *Arba shahri*.

**15:13** *Onoq avlodi* — 11:21 izohiga qarang.

**15:15** *Davir shahri* — Xevron shahridan qariyb 16 kilometr janubi–gʻarbda joylashgan.

**15:18** *...qiz Oʻtniyolga: "Keling, otamdan...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha

tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalarida *...O‘tniyol qizga: “Kel, otangdan...*.

**15:19** *Nagav cho‘li* — 10:40 izohiga qarang.

**15:19** *tepadagi va pastdagi buloqlar* — tepadagi buloq — tog‘dagi buloqqa ishora. Echkilarni sug‘orish uchun o‘sha buloq suvidan foydalanilgan. Pastdagi buloq — tekislikdagi buloqqa ishora. Yer ostidan suv chiqib, hovuzni hosil qilgan. Bu buloq suvidan donlarni sug‘orish uchun foydalanilgan.

**15:47** *Misr chegarasidagi irmoq* — 13:3 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

**15:50** *Eshtamo‘va* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Eshtamo‘x*. Uning Eshtamo‘va degan shakli 21:14 dan olingan.

**15:63** *...Yobus xalqini Quddusdan haydab chiqara olmadi* — Isroil xalqi Quddusni shoh Dovud davrida qo‘lga kiritgan (2 Shohlar 5:6-7 ga qarang), lekin shundan keyin ham butun Yobus xalqini shahardan haydab chiqarmagandi (2 Shohlar 24:16 ga qarang).

**15:63** *Bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

**16:1** *Yusuf avlodlari* — Yusufning ikkala o‘g‘li — Efrayim va Manashening avlodlariga ishora (14:3-4 ga qarang).

**16:2** *...Baytil, ya’ni Luzdan ham o‘tib...* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 18:13 ga qarang). Ibroniycha matnda *...Baytildan Luzga o‘tib...*.

**16:2** *Otro‘t–Adar* — ibroniycha matnda *Otro‘t*. *Otro‘t* — *Otro‘t–Adar*ning qisqa shakli.

**16:10** *bugungi kungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

**17:4** *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

**17:4** *“Egamizning O‘zi...Musoga amr qilgan”* — Sahroda 27:1-11, 36:1-12 ga qarang.

**17:7** *Tappux bulog‘i* — ibroniycha matnda *En–Tappux*, ma’nosi *Tappux bulog‘i*.

**17:14** *Yusuf avlodlari* — bu o‘rinda Efrayim qabilasi va Manashe qabilasining yarmi nazarda tutilgan. Ular Iordan daryosining g‘arb tomonida o‘rnashgan edilar. Shu bobning 17–oyatiga va 16:1-4 ga qarang.

**17:15** *Rafa* — 12:4 ning ikkinchi izohiga qarang.

**17:16** *...temirdan yasalgan jang aravalari...* — bu aravalarning ba’zi qismlari temirdan yasalgan edi, xolos.

**18:1** *Shilo‘ shahri* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan bo‘lib, Isroil xalqi sajda qiladigan asosiy joyga aylanib borayotgan edi.

**18:5** *Yusuf avlodlari* — 17:14 izohiga qarang.

**18:6** *...Egamiz Xudo oldida...qur’a tashlayman* — 14:2 izohiga qarang.

**18:11** *Yusuf avlodlari* — 17:14 izohiga qarang.

**18:16** *Yobus* — Quddusning qadimgi nomi (shu bobning 28–oyatiga qarang).

**18:18** *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

**18:19** *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi*.

**18:28** *Xirat–Yo‘rim* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan.

Ibroniycha matnda *Xirat*. *Xirat* — *Xirat–Yoʻrim*ning qisqa shakli boʻlishi mumkin.

**19:1** *Qur'a boʻyicha...* — 14:2 izohiga qarang.

**19:2** *...Bersheba (ya'ni Sheba)...* — ibroniycha matnda *...Bersheba, Sheba...*. Shu bobning 6–oyatida berilgan ma'lumotga koʻra, hammasi boʻlib 13 shahar qayd etilgan (yana 1 Solnomalar 4:28-30 ga qarang). Shunga binoan, Sheba — Bershebaning qisqa shakli boʻlishi mumkin.

**19:8** *Nagav choʻli* — 10:40 izohiga qarang.

**19:13** *...Rimmon shahrigacha borib, u yerdan Niyox shahri tomon buriladi* — yoki *...Rimmon, Mifoʻvar va Niyox shaharlarigacha boradi*.

**19:15** *Baytlahm* — Quddusdan janubdagi mashhur Baytlahmdan boshqa shahar. Mazkur oyatdagi Baytlahm Isroilning shimolida joylashgan.

**19:22** *Tovur togʻidan boshlanib...Tovur* — ibroniycha matnda *Tovur* soʻzi bir marta ishlatilgan. Lekin bu oyatda *Tovur* soʻzi ham toqqa, ham togʻ etagidagi shaharga nisbatan ishlatilgan boʻlishi mumkin. Tovur togʻi Issaxor hududining shimoliy chegarasidagi bir joy edi.

**19:22** *Bayt–Shamash* — shu bobning 38–oyatida hamda 15:10 da aytib oʻtilgan Bayt–Shamashdan boshqa shahar.

**19:28** *Abdoʻn* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Ebron*. Uning Abdoʻn degan shakli 21:30 dan olingan.

**19:29** *Rama* — mazkur oyatdagi Rama shahri shu bobning 36–oyatida va 18:25 da Rama deb nomlangan ikki shahardan boshqa shahar.

**19:29** *Maxalav, Axsib* — ibroniycha matnda bu soʻzlarning ma'nosi bahsli. Koʻp olimlarning sharhlashicha, bu soʻzlar ikki shaharning nomlari boʻlgan.

**19:30** *Ummo* — Hakamlar 1:31 da aytib oʻtilgan Akkoʻ shahrining yana bir nomi boʻlishi mumkin.

**19:34** *Iordan daryosi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Iordan daryosi boʻyidagi Yahudo*. Biroq Yahudo hududi Isroilning janubida, Naftali hududidan ancha uzoqda joylashgan edi. Ibroniycha matndagi *Yahudo* soʻzi Isroilning shimolida, Iordan daryosining gʻarbiy qirgʻogʻida joylashgan shaharni bildirgan boʻlsa kerak.

**19:36** *Rama* — mazkur oyatdagi Rama shahri shu bobning 29–oyatida va 18:25 da Rama deb nomlangan ikki shahardan boshqa shahar.

**19:38** *Bayt–Shamash* — shu bobning 22–oyatida hamda 15:10 da aytib oʻtilgan Bayt–Shamashdan boshqa shahar.

**19:47-48** *Layish* — ibroniycha matnda *Lashem*, Layishning yana bir nomi.

**19:47-48** *...Layish shahriga hujum qildi* — Hakamlar 18–bobga qarang.

**19:51** *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

**19:51** *Shiloʻ* — 18:1 izohiga qarang.

**19:51** *...Egamizning huzurida qur'a tashlab...* — 14:2 izohiga qarang.

**20:2** *Muso orqali sizlarga buyurganimday...* — Sahroda 35:9-34, Qonunlar 19:1-13 ga qarang.

**20:3** *marhumning qasos olmoqchi bo‘lgan qarindoshlari* — Sahroda 35:16-28 ga qarang.

**20:4** *...shahar darvozasi oldida...* — qadimgi paytlarda oqsoqollar va obro‘li odamlar shahar darvozasi oldida yig‘ilib, hakamlik vazifasini bajarardilar. U yerda turli masalalarni ko‘rib chiqib, hal qilardilar.

**20:6** *Qotil aybsiz deb topilgandan keyin...* — agar odam qotillikda aybdor deb topilsa, panoh shaharning aholisi qotilni jabr ko‘rgan qarindoshlarning qo‘liga topshirib, uni o‘ldirib yuborishlariga yo‘l qo‘yib berishlari kerak edi (Qonunlar 19:11-13 ga qarang).

**21:1** *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

**21:2** *Shilo‘ shahri* — 18:1 izohiga qarang.

**21:2** *...Egamiz Musoga amr qilgan edi* — Sahroda 35:1-8 ga qarang.

**21:4** *Qur’a* — 14:2 izohiga qarang.

**21:4** *Qohot* — Qohot, Gershon (shu bobning 6–oyatiga qarang) va Marori (shu bobning 7–oyatiga qarang) Levining o‘g‘illari edi (Chiqish 6:16 ga qarang).

**21:4** *Horun* — Qohotning nevarasi (Chiqish 6:18-20 ga qarang).

**21:11** *Xirat–Arba* — ibroniychadagi ma’nosi *Arba shahri*.

**21:11** *Onoq avlodi* — 11:21 izohiga qarang.

**21:12** *...Xolibga mulk qilib berilgan edi* — 14:6-14 ga qarang.

**21:25** *Bilom* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Gat–Rimmon*. Uning Bilom degan shakli 1 Solnomalar 6:70 dan olingan.

**21:36** *Yaxaz* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yaxzo*.

**22:9** *Shilo‘* — 21:2 oyatga va 18:1 izohiga qarang.

**22:13** *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

**22:16** *Nima uchun...o‘zingizga qurbongoh qurdingiz?* — Xudo Muso orqali Isroil xalqiga qurbongoh va sajdaga oid amrlarni bergan edi. Isroil xalqi Kan’on yurtida o‘rnashgandan so‘ng o‘sha amrlarga rioya qilgan holda, hamma qurbonliklarni faqat Xudo belgilagan joyda keltirishi kerak edi (Qonunlar 12:5-14 ga qarang). O‘sha davrda qurbonliklar keltiriladigan yagona joy Shilo‘da o‘rnatilgan Muqaddas chodir edi (shu bobning 19–oyatiga hamda 18:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

**22:17** *Piyor tog‘ida qilgan gunohimiz...* — Sahroda 25:1-9 ga qarang.

**22:19** *...Egamizga yoki bizga qarshi bosh ko‘tarmanglar* — yoki *...Egamizga qarshi bosh ko‘tarib, bizni ham isyonkor qilib qo‘ymanglar*. Isroil xalqining bir qismi Egamizga qarshi bosh ko‘targanda, butun xalq jazoga tortilardi (shu bobning 18, 20–oyatlariga qarang).

**22:20** *...Oxun Egamizga xiyonat qilib...* — 7:1-26 ga qarang.

**22:20** *bag‘ishlangan narsalar* — 6:17-20 oyatlarga va 6:16 izohiga qarang.

**22:34** *...qurbongohga Guvoh degan nom berishdi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *...qurbongohga nom berishdi*.

**23:4** *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

**23:6** *Tavrot kitobi* — 1:8 izohiga qarang.

**24:1** *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar. Shakam Isroil xalqi uchun muhim tarixiy yodgorlik boʻlib xizmat qilardi (Ibtido 12:6-7, 33:18-20, 35:2-5 ga qarang).

**24:4** *Seir togʻlari* — Edom yurtining yana bir nomi Seir edi. Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

**24:6** *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, maʼnosi *Qamish dengizi*. 2:10 izohiga qarang.

**24:9** *...Boloq...Balomni chaqirtirdi* — Sahroda 22:1-24:25 ga qarang.

**24:12** *Ikki Amor shohi* — yaʼni Sixoʻn va Oʻg (Sahroda 21:21-35, Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang).

**24:12** *Ikki Amor shohini...quvib yubordim* — yoki *Men Ikki Amor shohini quvish uchun sizlardan oldin qovoq arilarni yubordim*.

**24:26** *sajdagoh* — Xudoga sajda qilish uchun ajratilgan kichik bir ochiq joy boʻlsa kerak. Ibrohim shu joyda Egamizga atab qurbongoh qurgan boʻlishi mumkin (Ibtido 12:6-7 ga qarang), keyinchalik Yoqub oʻz xonadonini butlardan tozalab, ularni xuddi shu eman daraxtining tagiga koʻmgan boʻlishi mumkin (Ibtido 35:2-5 ga qarang).

**24:30** *Bu shahar unga ulush qilib berilgan boʻlib...* — 19:49-50 ga qarang.

**24:32** *...Yusufning suyaklarini oʻzlari bilan olgan edi* — Ibtido 50:24-26 va Chiqish 13:19 ga qarang.

**24:32** *yuz boʻlak kumush* — ibroniycha matnda *yuz kisito*. Bu pul birligining qiymati va ogʻirligi haqidagi maʼlumot saqlanib qolmagan. Qadimgi paytlarda maʼlum vazndagi kumush boʻlaklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

**24:32** *Yoqub bu yerni...sotib olgan edi* — Ibtido 33:19 ga qarang.